


# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan • WWW.XS.UZ • E-mail: Info@xs.uz • 2025-yil 1-avgust, № 156 (9051) Juma

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# VATAN UCHUN, MILLAT UCHUN, XALQ UCHUN!

## OZIQ-OVQAT MAHSULOTLARI YETISHTIRISHDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR IMKONIYATLARIDAN YANADA KENG FOYDALANILADI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 31-iyul kuni qishloq xo‘jaligida kosmik ma’lumotlardan foydalanish va raqamlashtirish chora-tadbirlari bo‘yicha yig‘ilish o‘tkazdi.**

Bu kuni kecha bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishining mantiqiy davomi. Meva-sabzavot va oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘paytirish masalasi ko‘rib chiqilar ekan, davlatimiz rahbari yerdan unumli foydalanish, samaradorlikni oshirish yo‘llarini ko‘rsatgan edi.

Buning uchun aniq hisob-kitob va tahlil juda zarur. Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan “O‘zbekkosmos” agentligi shunday imkoniyat bermoqda. 2024-yil 14-oktyabrdagi Prezident Farmoniga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarida aerokosmik texnologiyalar joriy etilmoqda.

Jumladan, bu qishloq va suv xo‘jaligidagi haqiqiy holatni, kamchiliklarni ochiq-oydin ko‘rsatib beryapti. Ikki yil mobaynida sohada foydalanilayotgan 4 million gektardan ziyod yerlar kosmik monitoring qilindi. Aniqlanishicha, hisobotlarda ko‘rsatilgan ayrim maydonlarda paxta ekilmagan, ba’zan esa zaxiradagi yoki egasi noma’lum yerlarga ekilgan.

Shu bois davlat tomonidan ajratiladigan imtiyozli kreditlarning maqsadli ishlatilishini masofaviy monitoring qiladigan tizim yo‘lga qo‘yilishi belgilandi.

Iqlim o‘zgarishi va suv taqchilligidan kelib chiqib, yurtimizda kam suv talab qiladigan yangi navlar va agrotexnologiyaga o‘tilmoqda. Lekin ekinlarni sug‘orishda suv sarfi me’yori hozirgi haqiqatdagi talabga javob bermasligi ko‘rsatib o‘tildi. Gidromodul rayonlashtirish yondashuvi ham eskirgan. Oqibatda kanallar oxirida joylashgan 3 mingdan ziyod fermerlarga suv yetib bormayapti.

Qishloq va suv xo‘jaligi tizimidagi ilmiy institutlarni jalb qilgan holda sug‘orish me’yori va gidromodul rayonlashtirishni to‘liq yangilash vazifasi qo‘yildi.

Fermerlar sarflayotgan suvning haligacha aniq hisobi yo‘qligi qayd etilib, buning barcha bosqichlarini raqamlashtirish, suvning konturma-kontur hisobini yuritish zarurligi ta’kidlandi.

Suv omborlari sig‘imi ham loyihaviy quvvati bo‘yicha hisoblanib kelinar edi. So‘nggi ikki yilda 60 ta yirik suv ombori ilk bor batimetrik tahlildan o‘tkazildi. Loyqa cho‘kkani sababli ayrimlarining sig‘imi kamaygani aniqlandi.

Shu bois barcha suv omborlariga “aqlli” hisoblagichlar o‘rnatib, suv miqdorini onlayn kuzatish, ulardagi loyqani kamaytirish vazifalari ko‘rsatib o‘tildi.

– Yer bilan suv qishloq xo‘jaligimiz taqdirini hal qiluvchi masala, – dedi Shavkat Mirziyoyev.

Yig‘ilishda sohani raqamlashtirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi.

Hozir fermerlar yer, kredit, subsidiya va agroxizmatlar bo‘yicha 30 dan ortiq platformalardan foydalanyapti. Buni osonlashtirish uchun ular birlashtirilib, “Raqamli qishloq xo‘jaligi” yagona integratsion platformasi ishga tushiriladi.

Endi dalasiga nima ekishni fermerning o‘zi hal qiladi. Buni platformaga ham uning o‘zi kiritadi. Natijada asosiy, takroriy va to‘qsonbosti ekinlar miqdori oldindan ko‘rinadi. Bu oziq-ovqat xavfsizligi, narx-navo barqarorligi va dehqonlarning daromadida juda muhim.

Bosh vazir o‘rinbosari J. Qo‘chqorov boshchiligida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha komissiya tuzilishi belgilandi. Yetishmayotgan mahsulotni ko‘paytirish uchun imtiyozli kredit va subsidiya beriladi.

Sohada uchuvchisiz apparatlardan foydalanish ham rejalashtirilmoqda. Kuzda 100 dan ziyod zamonaviy dronlar olib kelinadi. Mutasaddilarga xususiy sektorni jalb etib, fermerlarga dronlar yordamida xizmatlarni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ko‘rsatma berildi.

Somonpoyalarni yoqishga chek qo‘yishning qonuniy asoslarini yaratish zarurligi aytildi.

Kosmik tadqiqotlarda qurilish, kadastr, noruda konlari, o‘rmon va yaylov yerlari bo‘yicha ham tahlillar borligi ta’kidlanib, vazirlar va hokimlarga ularni o‘rganib, rejalar ishlab chiqish vazifasi qo‘yildi.

**O‘zA.**

## JAMIYATNING FAOL ISHTIROKI – ISLOHOTLAR MUVAFFAQIYATI GAROVI

*Har qanday jamiyat taraqqiyot sari intilar ekan, islohotlar zaruratga aylanadi. Islohotlar – bu eskirgan tizimlarni yangilash, jamiyatning ehtiyojlariga moslashtirish va kelajakka yo‘l ochish demak. Biroq olib borilayotgan ishlarning muvaffaqiyati ko‘pincha ularning qanchalik to‘g‘ri va samarali rejalashtirilganiga emas, balki jamiyatning bu jarayondagi ishtirokiga bog‘liq.*

**Munosabat**

Islohotlar jamiyatning ishtiroki bilan amalga oshirilgandagina legitim hisoblanadi. Jamiyat o‘z fikrini bildirish, takliflar kiritish va qaror qabul qilish jarayonida ishtirok etsa, ushbu islohotlarni o‘z manfaatlariga mos deb biladi va ularni qo‘llab-quvvatlaydi. Aksincha, jamiyatdan ajralgan holda yuqoridan turib amalga oshirilgan sa’y-harakatlar qarshilikka va muvaffaqiyatsizlikka uchrashi mumkin.

Jamiyatning ishtiroki islohotlar jarayonining shaffofligini ta’minlaydi. Jamoatchilik muhokamalari, ekspertlar bilan maslahatlashuvlar va ommaviy axborot vositalari orqali yoritish jarayonning barcha bosqichini ochiq qiladi. Bu esa, o‘z navbatida, qaror qabul qiluvchilarni hisobdorlikka undaydi va korrupsiya xavfini kamaytiradi.

Aslida davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlarning bosh maqsadi ham ochiqlik va natijadorlikka erishish, har bir sohada yuz berayotgan o‘zgarishlarda xalqning bevosita ishtirokini ta’minlashdan iborat.

→ 5

Mamlakatimiz mustaqilligining 34 yilligiga

## ENG GULLAGAN YOSHLIK CHOG‘IMDA...









*Inson dunyoga kelganidan hayotining oxirigacha bo‘lgan davrlarning har biri o‘ziga xosligi, rangbarangligi hamda unga beradigan saboqlari, ko‘ngliga soladigan tuyg‘u va orzulari bilan katta ahamiyatga molik. Ammo umr fasllari ichida shunday bir mavsum borki, u o‘zining ko‘rkamligi, shiddat va shijoatga boyligi bilan ajralib turadi.*

*Bu – muhtasham va muazzam yoshlik!*

*Bugungi tahlikali, fitnalar urchiyotgan, turli oqimlar avj olgan zamonda yoshlar masalasi har qachongidan ham muhim bo‘lib borayotgani bejiz emas. Zero, yoshlar – millat kelajagi, xalq va el-yurtning suyangan tog‘i.*

*Mamlakatimizda navqiron avlod vakillariga chin ma’nodagi yoshlikni his qilishi, o‘zlari istagancha bilim olishi, o‘qib-o‘rganishi, emin-erkin yashashi va iste’dodlarini yuzaga chiqarishi, bir so‘z bilan aytganda, baxtiyor hayot kechirishi uchun barcha sharoit muhayyo.*

*E’tiboringizga havola etilayotgan ushbu “Eng gullagan yoshlik chog‘imda...” sahifasida ham aynan yoshlikning beqiyos kuch-qudrati, unutilmas xotiralari, hayajonu mehr-muhabbatga boy lahzalari hamda yurtimizda navqiron avlod vakillariga yaratilayotgan imkoniyatlar borasida so‘z boradi.*

6-sahifaga qarang. →

## GLOBAL TINCHLIK VA HAMKORLIK BORASIDA MUHIM TASHABBUSLAR

*Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi O‘zbekiston delegatsiyasi Jeneva shahrida bo‘lib o‘tayotgan parlamentlar rahbarlarining 6-Butunjahon konferensiyasida ishtirok etdi.*

**Xalqaro anjuman**

Anjuman doirasida zamonaviy global tahdidlar, ijtimoiy beqarorlik, qurolli mojarolar va iqlim o‘zgarishlari sharoitida parlamentlararo diplomatiyaning roli, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, tinchlikni ta’minlash, adolatli boshqaruv tamoyillarini ilgari surish hamda aholi farovonligini oshirishda milliy parlamentlarning faol ishtirokini ta’minlash masalalari muhokama etildi.

Konferensiyada ma’ruza qilgan Senat Raisi Tanzila Norboyeva davlatimiz rahbari tomonidan olib borilayotgan demokratik islohotlar, parlament diplomatiyasini rivojlantirish, shuningdek, mintaqaviy va xalqaro hamkorlikni mustahkamlashga qaratilgan sa’y-harakatlar haqida to‘xtalib o‘tdi.

Tadbir mehmonlari va tashkilotchilar tomonidan joriy yil aprel oyida Toshkent shahrida o‘tkazilgan Parlamentlararo Ittifoqqa a’zo davlatlar 150-yubiley assambleyasining natijalari yuksak baholandi.

Jumladan, assambleya yakunida qabul qilingan Toshkent deklaratsiyasi hamda mojarolarni tinch yo‘l bilan hal etish va barqaror taraqqiyotga hissa qo‘shish masalalariga bag‘ishlangan ikki muhim rezolyutsiya global parlamentlararo birdamlikning amaliy ifodasi sifatida e’tirof qilindi.

Konferensiya davomida delegatsiyamiz tomonidan bir qator tashabbuslar ilgari surildi. Jumladan, mojarolarni siyosiy-diplomatik yo‘l bilan hal etishda parlamentlar rolini kuchaytirish, xalqaro huquq normalari va BMT Ustaviga asoslangan tinchlik tashabbuslarini keng qo‘llab-quvvatlash zarurligi ta’kidlandi.

Yoshlar parlamenti a’zolarini qo‘llab-quvvatlash doirasida esa 2026-yilda Parlamentlararo Ittifoq bilan hamkorlikda Yoshlar parlamenti a’zolarining 12-global konferensiyasini o‘tkazish tashabbusi ilgari surildi.

Shuningdek, 2025-yil sentyabr oyida O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha xalqaro konferensiyani o‘tkazish rejalashtirilayotgani, unga xorijiy parlamentlar, nodavlat tashkilotlar vakillari va ekspertlarni keng jalb etish ko‘zda tutilayotgani aytildi.

**“Xalq so‘zi”.**

**Deputatlar – hududlarda**

## O‘RGANISHLAR AHOLINI O‘YLANTIRAYOTGAN MASALALARGA YECHIM BO‘LMOQDA

*Shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari xalq bilan yaqindan muloqot qilish, ularni o‘ylantirayotgan masalalarga yechim topish, amalga oshirilayotgan islohotlar natijadorligini o‘rganish maqsadida hududlarda bo‘lib, saylovchilar bilan qator uchrashuvlar o‘tkazmoqda. Ochiq va samimiy muloqotlar davomida xalq vakillari aholi orasiga chuqur kirib borib, ijtimoiy soha obyektlari faoliyatini nazorat-tahlil tartibida o‘rganmoqda va joylardagi mavjud muammolarning yechimiga o‘z hissasini qo‘shmoqda.*

### Ishonchga asoslangan muloqot

Qonunchilik palatasi deputati Gulnora Abduvohidovaning Andijon viloyati Qo‘rg‘ontepa tumanidagi o‘rganishlari ham deputatlik instituti va saylovchilar o‘rtasidagi munosabatlar mustahkamlanib borayotganini yaqqol ko‘rsatdi. Deputat dastlab Qo‘rg‘ontepa tumanidagi “Muruvvat” nogironligi bo‘lgan bolalar internat-uyida bo‘ldi.

Bu yerda 229 nafar tarbiyalanuvchining turmushi bilan yaqindan tanishib, ular uchun yaratilgan sharoitlarni, tibbiy xizmat sifatini, oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlanganlik darajasini hamda xodimlarning o‘z vazifasiga mas’uliyatini o‘rgandi.

Deputatning qayd etishicha, bu yerda 312 nafar xodim o‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashmoqda. Har bir tarbiyalanuvchiga alohida e’tibor ko‘rsatilishi muhimligi inobatga olinsa, bu insonlarga faqat tashakkur aytish kerak. Muassasadagi tozalik va obodonlashtirish ishlari ham ko‘ngildagidek.

Shundan so‘ng saylovchilar bilan muloqot bo‘lib o‘tdi. Unda qonunchilikka kiritilayotgan o‘zgartirishlar, inson qadrini ulug‘lash, har bir fuqaroga teng imkoniyatlar yaratish masalalari muhokama qilindi.

Suhbat davomida davlatimiz mustaqilligining 34 yilligini munosib kutib olish va o‘z mehnati bilan yurt ravnaqiga hissa qo‘shish har bir fuqaroning burchi ekani ta’kidlandi.

Jamoatchilik vakillari yaratilayotgan shart-sharoitlarni ijobiy baholab, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan mamnun ekanliklarini bildirdi.

→ 2

## SHAMOLNI IZMIGA BO‘YSUNDIRAYOTGANLAR

**yoxud 20 MVt quvvatga teng Chorvoq shamol elektr stansiyasi loyihasi haqida**



**Taraqqiyot manzillari**

*Hozirgi shiddatli zamon iqtisodiy taraqqiyot yo‘lida barqaror energetika tizimini shakllantirishni, yirik hajmdagi energiya sarfini ko‘zda tutadi. Bu borada, dunyo bo‘ylab qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan unumli va samarali foydalanish tendensiyasi hamon dolzarb.*



Mamlakatimizda ham energetika tarmog‘ining ajralmas qismi hisoblangan “yashil” energetika, ya’ni qayta tiklanuvchi energiya manbalari hajmini oshirishga keng e’tibor qaratilmoqda. Masalan, gidroenergetika sohasini rivojlantirish barobarida quyosh va shamol energetikasini ravnaq toptirishga ham ustuvor ahamiyat berilmoqda.

→ 4

**Senat qo‘mitasida**



# DALA CHETLARIGA EKIN EKMAGANLIK UCHUN JAZO CHORALARI KUCHAYTIRILADI

*Oliy Majlis Senatining Agrar, suv xo‘jaligi masalalari va ekologiya qo‘mitasi majlisida “Dala chetlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish tizimi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun dastlabki tarzda muhokama qilindi.*

Keyingi yillarda oziq-ovqat mahsulotlarini ko‘paytirish, tashqi bozorlarga talab yuqori bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish orqali eksport ko‘lamini kengaytirish, ayniqsa, yerlardan unumli foydalanish imkoniyatini oshirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shu bois mamlakatimizda qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarining dala chetlaridagi kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi maydonlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni yo‘lga qo‘yish orqali aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta’minlash chora-tadbirlari amalga oshirilayotir.

Muhokamaga qo‘yilgan mazkur qonun bilan Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi hamda Soliq kodekslariga qishloq xo‘jaligi mahsulotini yetishtiruvchilarga qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarining dala chetlaridagi kanallar, sug‘orish va kollektor-drenaj tarmoqlari atrofidagi qonunchilikka muvofiq qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish belgilangan maydonlarda va muddatlarda maqbul ekin ekmaganlik uchun ma’muriy javobgarlikni belgilash hamda yer uchastkasining maqbul ekin ekilmagan qismi uchun yer solig‘ini oshirilgan miqdorda hisoblashga qaratilgan qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritilmoqda.

Senatorlar ta’kidlaganidek, mazkur qonunning qabul qilinishi aholini asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotlari bilan kafolatli ta’minlashga hamda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishni samarali tashkil etish hamda ko‘paytirish orqali mamlakatning eksport ko‘rsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi.

Majlis ishtirokchilari mazkur qonunni ekspertlar va mutaxassislar ishtirokida yana bir bor tahlil qilish, tegishli vazirlik hamda idoralarning taklif, mulohazalarini olish va umumlashtirishga kelishib oldi.

**“Xalq so‘zi”.**

**Yig‘ilish**

# VOYAGA YETMAGANLARNING MANFAATLARI DOIMIY HIMOYA OSTIDA

*Mamlakatimizda voyaga yetmaganlarning huquq va erkinliklarini himoyalash hamda qonuniy manfaatlarini ta’minlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. O‘zbekiston MDH mamlakatlari orasida birinchilardan bo‘lib 1992-yili “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyani ratifikatsiya qilgan. Milliy qonunchiligimizni konvensiya qoidalariga implementatsiya etish asnosida 2008-yil 7-yanvarda “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilindi.*

Voyaga yetmaganlarning manfaatlarini yanada kuchliroq himoya qilish maqsadida Oliy Majlis Senati Kengashining “Bolalarga nisbatan zo‘ravonlikning oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlarni belgilash to‘g‘risida”gi qarorida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etilayotgan huquqbuzarlik uchun javobgarlik choralarini kuchaytirish bo‘yicha Senat huzurida ishchi guruh tuzish belgilangan edi.

Shu maqsadda yuqori palataning Yoshlar, xotin-qizlar, madaniyat va sport masalalari qo‘mitasi tomonidan mutasaddi vazirlik, idoralar vakillari, ekspertlar, Yoshlar parlamenti a’zolaridan iborat ishchi guruh tashkil qilindi.

Ishchi guruhning asosiy vazifasi internetda, ijtimoiy tarmoqlar va boshqa turli platformalarda voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etilayotgan huquqbuzarlik uchun javobgarlik choralarini takomillashtirishdan iborat.

Yig‘ilishda internetda voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etilayotgan huquqbuzarliklarni tahlil qilish, sun’iy intellekt yordamida voyaga yetmagan shaxslarning suratlarini soxtalashtirish orqali ularni tahqirlash kabi holatlarni aniqlash va huquqiy baho berish, kibermakonda bolalar huquqini himoya qilish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlarni yo‘lga qo‘yish yuzasidan ilg‘or xorijiy tajribani o‘rganish kabi masalalar muhokama markazida bo‘ldi. Yakunda ishchi guruh a’zolarining fikr-mulohazalari va takliflari eshitilib, ularning asosiy vazifalari belgilandi.

**“Xalq so‘zi”.**

**Mahalliy Kengashlarda**

# DEPUTATLAR O‘ZARO TAJRIBA ALMASHMOQDA

*27 – 29-iyul kunlari xalq deputatlari Toshkent shahar va tuman Kengashlari deputatlari hamda kotibiyat mudirlaridan iborat ishchi guruh Andijon viloyatida bo‘ldi.*

Dastlab Andijon shahar hokimligida hamda xalq deputatlari Andijon shahar Kengashida kotibiyat faoliyati, ish yuritish tartibi, mahalliy vakillik organlari va ijro hokimiyati o‘rtasidagi hamkorlik mexanizmlari bilan tanishildi.

Ikki hudud deputatlari o‘zaro fikr almashib, mahalliy Kengashlar faoliyatida ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga yechim topish, nazorat-tahlil faoliyatini kuchaytirish va ilg‘or tajribani amaliyotga joriy etish masalalarini muhokama qildi.

Bundan tashqari, ishchi guruh a’zolari Andijon shahridagi bir qator mahallalar, ta’lim muassasalari, sog‘liqni saqlash, tadbirkorlik va ijtimoiy soha obyektlari faoliyatini o‘rgandi.

Ular Xalq banki ATB tomonidan Oltinko‘l tumanida “Charm-poyabzal” kichik sanoat zonasida amalga oshirilayotgan loyiha, “Green World Landshaft” MChJ tomonidan Qo‘shtepa mahallasida 15,9 gektar maydonda amalga oshirilayotgan ko‘chatchilik va manzarali daraxt ko‘chatlari yetishtirish loyihasi, shuningdek, “Aloqabank” ATB tomonidan rejalashtirilgan “Mebelsozlik kompleksi” loyihasi bilan ham tanishdi.

**“Xalq so‘zi”.**

# YANGI DAVRDA SALOHIYATI YUKSALAYOTGAN ZAMIN



*So‘nggi yillarda O‘zbekistonning hududlarini ixtisoslashtirish, qishloq xo‘jaligi va turizm salohiyatini amaliy rivojlantirish bo‘yicha qat’iy qadamlar qo‘yilayotgani bois Jizzax viloyati ana shu strategiyaning markaziy nuqtalaridan biriga aylanmoqda. Yaqinda davlatimiz rahbari Jizzax viloyatiga tashrifi davomida viloyatning agrar, sanoat va turizm salohiyatini yuksaltirish bo‘yicha qilinayotgan ishlar bilan yaqindan tanishgan va bu boradagi imkoniyatlar to‘g‘risida so‘z yuritgan edi.*

## Aks sado

Viloyat kartoshkachilik, dukkakli ekinlar, suv xo‘jaligi va turizm yo‘nalishlarida yangi bosqichga kirmoqda. Bu nafaqat mahalliy aholi farovonligi, balki milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasi uchun ham katta ahamiyatga ega.

Zomin tumanidagi ilmiy-tajriba stansiyasi asosida hozirgi kunda 12 ta mahalliy va xorijiy seleksiyaga mansub kartoshka navlari bilan birlamchi urug‘chilik ishlari boshlab yuborildi. Oddiy holatda kartoshka urug‘chiligi 6-7 yil va 8 ta texnologik bosqichni talab qiladi. Lekin yangi innovatsion yondashuv asosida bu jarayon 4 bosqichga qisqartirilib, bor-yo‘g‘i 2 yilda natija olish imkoni yaratilmoqda.

Istiqboldagi rejalarga ko‘ra, ushbu tezkor sikl tufayli 12 tonna yuqori avlod super-elita darajasidagi urug‘lik kartoshka mahalliy aholiga bepul tarqatiladi. Natijada 120 tonna elita urug‘lik yetishtirish imkoni yaratiladi. Bu esa viloyatda kartoshka yetishtirishni industrial asosga o‘tkazish, ichki talabni to‘liq qondirish, qolaversa, eksportbop mahsulot hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Endilikda bu yo‘nalish yanada rivojlantirilib, xalqimiz dasturxonini ushbu mahsulot bilan to‘ldirishga Jizzax viloyati ham astoydil kirishdi, desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

O‘zbekistonda kartoshka yetishtirish mamlakat qishloq xo‘jaligining muhim sohalaridan biri bo‘lib, ichki bozorni asosiy oziq-ovqat mahsuloti bilan ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

Mamlakatimizning ba’zi hududlari o‘zlarining ayrim xususiyatlariga ko‘ra kartoshkachilik bilan muntazam shug‘ullanadi. Misol uchun, Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlari – iqlimi mo‘tadil, sug‘orish imkoniyatlari yaxshi bo‘lganligi uchun, Toshkent viloyati bozorlariga yaqinligi va yetkazib berish osonligi tufayli, Samarqand, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari esa yilning ikkinchi yarmida takroriy ekin sifatida ekiladigan kartoshka turlari bilan mashhur.

Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishda faqat urug‘lik emas, balki suv resurslaridan samarali foydalanish ham muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda Zarbdor tumanida kanallarda nasos stansiyalari va magistral quvurlar qurish loyihalari rejalashtirilgan. Bu ishlar suv tejamkor texnologiyalarni tatbiq etish, yangi ekin yerlarini o‘zlashtirish va suvdan unumli foydalanish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, dukkakli ekinlar – soya, mosh, no‘xat va boshqalarni ekish masalasi ham strategik yo‘nalish sifatida belgilangan. Ushbu ekinlar kam suv talab qilgani bois hosildorlik va eksportboplik nuqtayi nazaridan ham ustunlik beradi.

Jizzax viloyati nafaqat agrar, balki turizm salohiyati bilan ham alohida ajralib turadi. Viloyatdagi tabiiy landshaft tog‘, vodiy, cho‘l va ko‘llar uyg‘unligi yilning barcha faslida turizmni rivojlantirish uchun ajoyib sharoit yaratadi.

“Zomin” turistik-rekreatsion zonasi, yaqinda faoliyat boshlagan Zomin aeroporti va yangi yo‘llar hududga sayyohlar oqimini kengaytirishga xizmat qiladigan asosiy infratuzilma elementlaridir. Viloyatda 6 ta yirik kanal bo‘ylab tashkil etilgan sayilgohlar mahalliy va xorijiy turistlar uchun dam olish, ekologik turizm, velotur va oilaviy sayohatlar imkonini yaratadi.

Ayni paytda “Aydar-Arnasoy” ko‘llar tizimi qirg‘oqlarida zamonaviy turizm markazi tashkil etilishi ko‘zda tutilmoqda. Bu yo‘nalishda ekoturizm, baliqchilik, suv sportlari va madaniy-ommaviy tadbirlar kabi faoliyat turlari rivojlantiriladi.

Umuman, Jizzaxda amalga oshirilayotgan islohotlar viloyatni kompleks rivojlantirish, uni agrar, sanoat va turistik markazga aylantirish sari yanada yaqinlashtiradi. Innovatsion urug‘chilik tizimi orqali kartoshkachilikni rivojlantirish, suv infratuzilmasini modernizatsiya qilish va turizm infratuzilmasini yaratish kabi sa’y-harakatlar Jizzaxni yaqin yillarda mamlakatdagi eng faol iqtisodiy hududlardan biriga aylantirishi muqarrar.

Bu jarayon iqtisodiy o‘sishni yuzaga chiqarish barobarida aholi bandligini, xalqimiz farovonligini oshiradi.

**Jamila BOBONAZAROVA,**
**Oliy Majlis Senatining Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo‘mitasi a’zosi.**

# O‘RGANISHLAR AHOLINI O‘YLANTIRAYOTGAN MASALALARGA YECHIM BO‘LMOQDA

← 1

### Fermerlarga qonunchilikdagi yangiliklar tushuntirildi

Qonunchilik palatasi deputati Javlon Abdullayevning Farg‘ona viloyatidagi navbatdagi o‘rganishlari fermer xo‘jaliklari dalalaridan boshlandi.

Dastlab Toshloq tumanining Xonariq mahallasidagi “Mo‘ydinboy” fermer xo‘jaligida o‘rganish ishlari olib borildi.

Mazkur xo‘jalik 106 gektar yer maydoniga ega bo‘lib, shundan 46 gektariga paxta, 46 gektariga bug‘doy ekilgan. Shuningdek, 3 gektar maydon tutchilik uchun ajratilgan bo‘lib, u yerda pilla qurti yetishtirilmoqda. Yer uchastkalari atrofida 4 gektarli yashil hudud tashkil qilingan. Qolgan 7 gektar yer esa yoshlarni band etish maqsadida davlat dasturi doirasida ajratilgan.

Fermerlar ishtirokida o‘tkazilgan uchrashuvda dala chetlaridan samarali foydalanish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish bo‘yicha joriy qilinayotgan yangi tartibning mazmun-mohiyati keng jamoatchilikka tushuntirildi.

Shu bilan birga, uchrashuv davomida ishchi va xodimlar uchun yaratilgan shart-sharoitlar bilan ham tanishildi. Dala shiyponida ovqatlanish va dam olish uchun qulayliklar yaratilgan. Shuningdek, sug‘orish tizimi samaradorligini ta’minlash maqsadida zaxira suv havzalari tashkil etilgan bo‘lib, ularda baliqchilik yo‘lga qo‘yilgan.

O‘z navbatida, fermerlar deputat bilan suhbat chog‘ida qonunchilikdagi ko‘plab yangiliklardan xabardor bo‘lishganini, bu esa ularning yanada samarali faoliyat yuritishida dasturilamal bo‘lishini qayd etishdi.

### Vardonze turizm yo‘nalishiga kiritilishi kerak

Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishda ming yillik tariximizdan so‘zlovchi tarixiy yodgorliklarning o‘rni beqiyos. Turizmga bo‘lgan e’tiborning kuchaytirilishi natijasida Buxoro viloyatiga tashrif buyurayotgan xorijiy sayyohlarning soni kundan-kunga oshib bormoqda.

Zero, O‘zbekiston madaniy-ma’naviy merosi boyligi, qadimiy va betakrorligi bilan jahonning yetakchi davlatlari qatoriga kiradi.

Vardonze – Shofirkon tumanidagi tarixiy obida sanaladi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Maxsud Muhammedov o‘rganishlari davomida ushbu obyektda bo‘ldi. Soha mutaxassislari bilan Vardonzeni turizm yo‘nalishiga kiritish, yodgorlikka yaqin hududda turizm obyektlarini tashkil etish, shuningdek, yodgorlikning master-rejasini ishlab chiqish bo‘yicha qator masalalar muhokama markazida bo‘ldi.

Bu borada tegishli amaliy ishlarni boshlash bo‘yicha kelishib olindi.

### Murojaatlar – doimiy e’tiborda

Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati Tohir Polvonov o‘z saylov okrugida aholi vakillari bilan muloqot o‘tkazmoqda.

Xalq vakilining navbatdagi uchrashuvi Tuproqqal’a tumani saylovchilari bilan bo‘lib o‘tdi.

Ochiq muloqot davomida deputat mamlakatimiz qonunchiligidagi muhim yangiliklar, amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmun-mohiyati va ahamiyati haqida atroflicha so‘z yuritdi.

Shuningdek, uchrashuvda fuqarolar tomonidan bildirilgan taklif va murojaatlarni o‘rganishga alohida e’tibor qaratildi. Deputat ko‘tarilgan ijtimoiy-iqtisodiy masalalarning aksariyatini shu joyning o‘zida, mutasaddi tashkilotlar bilan hamkorlikda hal etish choralarini ko‘rdi. Qo‘shimcha o‘rganish va vaqt talab qiladigan murojaatlar esa deputatlik nazoratiga olindi.

Bu kabi uchrashuvlar xalq vakillarining saylovchilar bilan aloqasini mustahkamlash, hududlardagi real holatni joyida o‘rganish hamda aholini qiynayotgan muammolarga o‘z vaqtida yechim topishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

*Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining hududlardagi o‘rganishlari davom etmoqda.*

**“Xalq so‘zi”.**

# QISHLOQ XO‘JALIGIDA ILG‘OR STANDARTLAR

## joriy etish orqali qonunchilik mustahkamlanadi

*Mamlakatimiz qishloq xo‘jaligida amalga oshirilayotgan sa’y-harakatlar xalqimiz farovonligini yuksaltirish, yurtimiz taraqqiyotini ta’minlashning kafolati bo‘lib xizmat qilmoqda. Ushbu soha salohiyati yuqori bo‘lib, oxirgi yillarda agrar tizimdagi islohotlar xalqaro miqyosda ham e’tirofini topmoqda. Albatta, ushbu jarayonda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasining bu boradagi huquqiy bazani takomillashtirishga qaratilgan ishlari muhim ahamiyat kasb etayotir.*

## Sarhisob

Binobarin, 30-iyul kuni Prezidentimiz raisligida meva-sabzavot va oziq-ovqat eksportini ko‘paytirish masalalari muhokamasi bo‘yicha o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida Suv kodeksining qabul qilingani suv tanqisligi sharoitida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga huquqiy yo‘l ochayotgani, bu ishlarni davom ettirib, qishloq xo‘jaligida daromadni oshirish, eksportni rag‘batlantirish, ilg‘or standartlarni joriy etish bo‘yicha ham qonunchilikni mustahkamlash maqsadga muvofiq ekani ta’kidlandi. Ayni vaqtda qo‘mitamiz ushbu yo‘nalishda bajarilishi lozim bo‘lgan vazifalarni belgilab olmoqda.

Qayd etish kerakki, o‘tgan yarim yillikdagi faoliyatimiz samarali bo‘ldi. Agrar va suv xo‘jaligi sohasidagi islohotlarni yanada chuqurlashtirish va rivojlantirish, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini taraqqiy ettirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda yer uchastkalaridan samarali foydalanish, qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilarini qo‘llab-quvvatlash kabi muhim yo‘nalishlarning huquqiy poydevorini mustahkamlash, sohadagi mavjud normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlashga ustuvor ahamiyat qaratildi. Faoliyatimizda Prezidentimizning 2024-yil 18 – 20-noyabr kunlari Oliy Majlis palatalaridagi nutqlari muhim asos bo‘lmoqda.

Qo‘mitamiz qonun ijodkorligi yo‘nalishida 10 ta qonun loyihasi va Qonunchilik palatasining bitta qarori loyihasi uchun mas’ul bo‘ldi. Xususan, suv, suv obyektlari, suv xo‘jaligi obyektlari va suv fondi yerlaridan foydalanish, chorva mollarini identifikatsiya qilish, ro‘yxatga olish va kuzatish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishga, qishloq xo‘jaligi tavakkalchiliklarini sug‘urtalash, sug‘urtalanishi lozim bo‘lgan tavakkalchiliklar va sug‘urta shartnomasini tuzishga qaratilgan 3 ta yaxlit hujjat ustida ish olib borildi.

Ayonki, bugungi kunda qonun loyihalarini maromiga yetkazishda va ularning har jihatdan pishiq, mukammal bo‘lishini ta’minlashda qo‘mitalar huzuridagi ekspertlar, jamoatchilik kengashi hamda ishchi guruhlarning yig‘ilishlari muntazam tashkil qilinayotgani dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu kabi muhokamalar natijasida qo‘mitamiz mas’ulligida qonun loyihalarining 5 tasi konseptual jihatdan takomillashtirildi va qonun loyihalari qariyb 15 – 20 foizgacha o‘zgartirildi.

Qo‘mita tomonidan qonunlar va qonunosti hujjatlari ijrosini ta’minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni nazorat-tahlil tartibida o‘rganish hamda ularning yakunlari bo‘yicha davlat va boshqaruv organlari mansabdor shaxslarining axborotini eshitishga alohida e’tibor qaratildi. Shu maqsadda 8 ta tadbir o‘tkazildi. Jumladan, Suv xo‘jaligi, Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik, Qishloq xo‘jaligi vazirliklari, Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi, O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi, O‘zbekiston fermerlari kengashi, Markaziy bank rahbariyatining dolzarb masalalar yuzasidan axborotlari qo‘mita majlisida eshitildi.

Nazorat-tahlil tadbirlarida hududlarda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash bo‘yicha olib borilayotgan ishlar, intensiv usulda bog‘ va tokzorlar barpo qilish, issiqxona xo‘jaliklarini rivojlantirish va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishni ko‘paytirish, qayta ishlash, eksport salohiyatini kengaytirish, sohada aholi bandligini ta’minlash va daromadlarini oshirish



masalalari qo‘mita a’zolarining diqqat markazida bo‘ldi. Shuningdek, yer maydonlarini kambag‘al oilalarga ijaraga berish orqali kambag‘allikni qisqartirish va aholi bandligini ta’minlash, suv resurslaridan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish va kanallarni betonlashtirish ishlarini tahlil qilishga ham jiddiy e’tibor qaratildi.

Mazkur vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida deputatlar tomonidan Farg‘ona, Xorazm, Jizzax, Andijon viloyatlari misolida o‘rganishlar olib borilib, aniqlangan mavjud muammo va masalalar hudud mutasaddilari ishtirokida muhokama qilindi.

Saylovchilar tomonidan ko‘tarilayotgan masalalar va joylarda olib borilayotgan o‘rganishlar davomida aniqlangan kamchilik hamda muammolarga mutasaddilar e’tiborini qaratgan holda hal etishga ustuvor ahamiyat berildi. Jumladan, shu yil 19-fevral kuni tashabbusimiz bilan Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi direktorining axboroti quyi palata majlisida eshitildi.

Joylarda olib borilgan o‘rganishlardan kelib chiqib, tashkil etilgan “Hukumat soati”da suv resurslaridan samarali foydalanish, suv tejovchi texnologiyalarga o‘tish, kanallar va sug‘orish tarmoqlarini betonlashtirish ishlarining borishi to‘g‘risidagi masalani muhokama qildik. Unda deputatlarning savollariga suv xo‘jaligi vaziri javob berdi.

Shuningdek, qo‘mita a’zolari tomonidan mansabdor shaxslarga saylovchilarning qonuniy huquq va manfaatlarini ta’minlash bilan bog‘liq masalalar yuzasidan jami 13 ta deputat so‘rovi yuborildi. Unda asosiy e’tibor dehqon va fermer xo‘jaliklarining huquqlarini himoya qilish, suv inshootlaridan foydalanish, aholi tomorqalarini suv bilan ta’minlash, mahsulot yetishtirishda eksport salohiyatini oshirish masalalariga qaratildi.

> *Hisobot davrida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘z vaqtida o‘rganish hamda ularni hal etishga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, jami 192 ta murojaat belgilangan tartibda ko‘rib chiqilib, ulardan 43 tasiga ijobiy yechim topildi, qolganlari yuzasidan tegishli tartibda ish olib borilmoqda.*

Saylovchilar bilan muloqot ham faoliyatimizning ustuvor yo‘nalishlaridan. Hisobot davrida jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini o‘z vaqtida o‘rganish hamda ularni hal etishga alohida e’tibor qaratildi. Xususan, jami 192 ta murojaat belgilangan tartibda ko‘rib chiqilib, ulardan 43 tasiga ijobiy yechim topildi, qolganlari yuzasidan tegishli tartibda ish olib borilmoqda.

Bundan tashqari, jismoniy va yuridik shaxslarning qabullari muntazam o‘tkazilmoqda. O‘tgan davrda qo‘mita a’zolarining turli masalalar yuzasidan 22 nafar jismoniy va yuridik shaxs vakillarining qabuli tashkil etildi. Ular tomonidan 36 ta masala ko‘tarilgan bo‘lib, shundan 12 tasi deputatlar sa’y-harakatlari natijasida o‘z yechimini topgan bo‘lsa, 24 tasi ko‘rib chiqish uchun tegishli davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlariga yuborildi.

Keyingi paytda fuqarolar tomonidan yo‘llanayotgan murojaatlarda qonun hujjatlari normalarini takomillashtirishga doir takliflar salmog‘i ortib bormoqda. Ular, o‘z navbatida, qo‘mita tomonidan muntazam o‘rganib chiqilyapti. O‘tgan vaqt mobaynida takliflari asosli deb topilgan 8 nafar fuqaro qo‘mita tomonidan e’tirof etildi. Shuningdek, takliflar va munosabatlar bildirgan fuqarolar ishtirokida uchrashuv o‘tkazishga ham alohida e’tibor qaratilayotir.

Ahamiyatli jihati, qonun loyihalarini takomillashtirish bo‘yicha bildirilgan bir qator takliflar loyihalarda o‘z aksini topmoqda. Misol uchun, Suv kodeksi loyihasini takomillashtirishda suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonalari o‘lchami, sohilbo‘yi mintaqalari o‘lchami, ichimlik va xo‘jalik-maishiy suv ta’minoti manbalarining sanitariya muhofazasi zonalari o‘lchamlari tegishli moddalarda tarqoq holda keltirilgan edi. Ushbu o‘lchamlar kodeksda tarqoq holda berilishi huquqni qo‘llashda qiyinchiliklarni keltirib chiqarishini hisobga olib alohida moddada, ya’ni Suv kodeksining 126-moddasida “Suv obyektlarining suvni muhofaza qilish zonalari va sohilbo‘yi mintaqalari, ichimlik va xo‘jalik-maishiy suv ta’minoti inshootlarining sanitariya muhofazasi zonalari” jadval asosida ko‘rsatib o‘tildi.

Shu o‘rinda ilmiy-tadqiqot muassasalari va tahlil markazlari bilan hamkorligimiz yanada mustahkamlanganini alohida qayd etish o‘rinli. Xususan, qo‘mita tomonidan o‘nta ilmiy-tadqiqot muassasasi, shu yo‘nalishdagi tahlil markazlari va boshqa tashkilotlar bilan memorandumlar hamda uni amalga oshirishga qaratilgan hamkorlik rejalari imzolangani bunga yaqqol dalildir.

Umuman, hisobot davrida qo‘mita faoliyatini samarali tashkil etish, qonun loyihalarining keng jamoatchilik ishtirokidagi muhokamasiga va amalga oshirilayotgan islohotlarni aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilishga alohida e’tibor qaratildi.

**Ravshan MAMUTOV,**
**Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xo‘jaligi masalalari qo‘mitasi raisi.**

**O‘zbekistonda ilk bor avtotransport vositalarini temir yo‘l platformalarida tashish bo‘yicha amaliyot sinovi muvaffaqiyatli o‘tkazildi.**

# ТАРИХИЙ ТАШРИФ ЧОҒИДА ЭРИШИЛГАН КЕЛИШУВЛАР

## CHORVACHILIK TARMOG‘I RIVOJIDA YANGI UFQLAR OCHMOQDA

*Keyingi paytda O‘zbekiston hamda Mo‘g‘uliston o‘rtasidagi siyosiy muloqot faollashib, mamlakatlarimizning o‘zaro aloqalari sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarildi. Tabiiyki, bunda ikki davlat rahbarlarining oxirgi to‘rt yil davomida muntazamlik tus olgan uchrashuvlari doirasida erishilgan kelishuvlar muhim ahamiyat kasb etyapti.*

*Darhaqiqat, O‘zbekiston ham, Mo‘g‘uliston ham keng qamrovli hamkorlikni rivojlantirishga birdek intilmoqda. Tahlilchilar ta’biri bilan aytganda, haqli ravishda “Beshinchi Osiyo yo‘lbarsi” nomini olgan, Markaziy Osiyo mintaqasida yetakchi mavqega ega O‘zbekiston bilan savdo-iqtisodiy aloqalarning jadallashuvi, ayniqsa, Mo‘g‘uliston uchun yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda.*

*Bu haqda so‘z yuritilganda, 2019 – 2024-yillarda o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi 10,5 baravar ortib, 1,9 mln. AQSH dollaridan 20,4 mln. dollarga yetganini, bunda O‘zbekiston eksporti 1,5 mln. dollardan 15,1 mln. dollarga, import esa 519 ming dollardan 5,3 mln. dollarga ko‘payganini misol sifatida keltirish kifoya, nazarimizda. Natijada o‘tgan yilning o‘zida ikki davlat o‘rtasidagi savdo-sotiq hajmi 46,8 foiz, eksport va import esa 47 foiz o‘sdi.*

**Qaror va ijro**



> **“Prezident qaroriga muvofiq, O‘zbekistonga 2025-2026-yillar davomida 100 ming bosh “Bayad” zotli qo‘ylar olib kelinishi belgilangan. Ularni mahalliy sharoitda naslchilik-seleksiya ishlari yordamida ko‘paytirish orqali mahsuldor qo‘ylar sonini 2029-yil yakuniga qadar 1 mln. boshga yetkazish maqsad qilingan.”**

### Hamkorlikning strategik bosqichi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev joriy yilning 24-25-iyun kunlari davlat tashrifi bilan Mo‘g‘ulistonda bo‘ldi. Ushbu tarixiy tashrif o‘tgan yilning iyun oyida Mo‘g‘uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning O‘zbekistonga tashrifi chog‘ida boshlangan faol siyosiy muloqotning mantiqiy davomi o‘laroq, ikki davlat o‘rtasidagi munosabatlarda tamoman yangi yo‘nalishlarni boshlab berdi.

Mazkur tashrifning “tarixiy” deya atalishining sabablari bor, albatta. Chunki ikki mamlakat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar o‘rnatilganiga o‘ttiz yildan ortiq vaqt o‘tib, O‘zbekiston rahbari Ulan-Batorga ilk davlat tashrifi bilan bordi. Natijalar esa tomonlar kutganidek, o‘ta yuqori va samarali bo‘ldi.

Ikki kunlik tashrifda O‘zbekiston – Mo‘g‘uliston do‘stlik va ko‘p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi. Ulan-Bator shahrida bo‘lib o‘tgan oliy darajadagi muzokaralar yakunida ikki davlat rahbarlari Keng qamrovli sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risidagi qo‘shma deklaratsiyani imzoladi. Shuningdek, Prezidentlar huzurida bir qator hujjatlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi hamda Mo‘g‘uliston Oziq-ovqat, qishloq xo‘jaligi va yengil sanoat vazirligi o‘rtasida qishloq xo‘jaligi sohasidagi aloqalarni kengaytirish bo‘yicha hamkorlik rejasi imzolandi.

Erishilgan kelishuvlarni o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish bo‘yicha “Yo‘l xaritasi”ni qabul qilish yuzasidan ahdlashildi. Buning samaralari hozirdanoq ko‘zga tashlanmoqda. Misol uchun, Ulan-Batorda O‘zbekiston mahsulotlari shourumiga ega “Savdo uyi” ochildi, sanoat va qishloq xo‘jaligi sohalarida qator qo‘shma loyihalar ishga tushirildi. Chorvachilik, oziq-ovqat sanoati kabi iqtisodiyotning muhim sohalarida yana ko‘plab tashabbuslar ilgari surilmoqda.

Aytish joizki, davlatimiz rahbarining shu yil 17-iyuldagi “Mo‘g‘ulistonga oliy darajadagi tashrif davomida qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat sohalarida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori tomonlar uchun teng manfaatli bo‘lgan hamkorlik aloqalariga yangi sur’at bag‘ishlayotir.

### 100 ming bosh naslli qo‘y olib kelinadi

Qishloq xo‘jaligida kompleks hamkorlikni chuqurlashtirish, ayniqsa, chorvachilik yo‘nalishida qo‘shma klasterlar tashkil etish, go‘sht-sut, jun va charm mahsulotlarini qayta ishlash hamda ishlab chiqarish bo‘yicha kooperatsiya loyihalarini amalga oshirish O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarning muhim yo‘nalishi hisoblanadi. Xususan, Qoraqalpog‘iston va Namanganda chorvachilik agroklasterlari yo‘lga qo‘yilishi rejalashtirilmoqda. Bu naslchilik ishlarini yaxshilash barobarida, ichki bozorni sifatli go‘sht mahsulotlari bilan to‘ldirish, ular narxi oshib ketishining oldini olishga xizmat qilishi bilan alohida ahamiyatga ega.

Mo‘g‘uliston bilan savdo-iqtisodiy munosabatlarda chorvachilikka jiddiy e’tibor qaratilayotgani bejiz emas. Negaki, mazkur tarmoq mamlakat iqtisodiyotining drayveri sanaladi. Aholisining 30 foizga yaqini chorvachilik sohasida mehnat qilishi, yalpi ichki mahsulotining 11 – 13 foizi mazkur tarmoq ulushiga to‘g‘ri kelishi buning yaqqol dalilidir.

Statistika ma’lumotlariga qaraganda, bugungi kunda Mo‘g‘ulistonda chorva mollari soni 57,6 mln. boshga yetgan bo‘lib, shuning taxminan 85 – 90 foizini mayda shoxli mollar, ya’ni qo‘y-echkilar tashkil etadi. Qo‘ylarning, asosan, “Bayad”, “Xangay”, “Darxad”, “Bayanxongor” zotlari, echkining esa “Kashemir”, “Gobi” va “Xovd” zotlari parvarishlanadi. Ular, asosan, sanoatbop mayin juni, totli go‘shti uchun ko‘paytiriladi.

Prezident qaroriga muvofiq, O‘zbekistonga 2025-2026-yillar davomida 100 ming bosh “Bayad” zotli qo‘ylar olib kelinishi belgilangan. Ularni mahalliy sharoitda naslchilik-seleksiya ishlari yordamida ko‘paytirish orqali mahsuldor qo‘ylar sonini 2029-yil yakuniga qadar 1 mln. boshga yetkazish maqsad qilingan. Mazkur vazifa ijrosini izchil ta’minlash uchun Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasida maxsus ishchi guruhi tuzilib, Mo‘g‘ulistondan keltirilayotgan mayda shoxli mollarning umumiy xarakteristikasi va import uchun qo‘yiladigan talablar ishlab chiqildi. Unga ko‘ra, import jarayonida sovuq hamda issiq iqlimga moslashuvchan, jun qoplamasi qalin, yoshi o‘ttiz oylikkacha bo‘lgan qo‘y va echkilar tanlanadi. Podani to‘ldiruvchi yosh qo‘chqor va takalarning ham yoshi o‘ttiz oylikkacha bo‘lishi lozim. Chorvador tadbirkorlarning ushbu tavsiya va talablarga qat’iy rioya etilishi nazorat qilib boriladi.

Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi mas’ullarining aytishicha, bundan ko‘zlangan maqsad, avvalo, chorvachilikda naslchilikni yaxshilash orqali go‘sht yetishtirish hajmini muttasil oshirish, qolaversa, sanoatbop jun va kashemirni qayta ishlab, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yishdir.

### “Bayad” zotining afzalligi nimada?

Ma’lumotlarga qaraganda, dunyoda olti yuzga yaqin qo‘y zotlari mavjud bo‘lib, ular orasida mamlakatimiz iqlim sharoitiga moslari ham bisyor. Oxirgi besh yilda xorijiy davlatlardan 792 ming bosh ana shunday qo‘y-echki olib kelindi. Biroq yurtimiz chorvadorlari Mo‘g‘ulistonning sharqiy va markaziy hududlarida yaratilgan “Bayad” zotiga katta qiziqish bildirmoqda. Shu bois o‘tgan yilning o‘zida respublikamizga 7 ming bosh “Bayad” zotli qo‘y import qilindi.

E’tiborlisi, ushbu qo‘ylarning barchasi Navoiy viloyatidagi tadbirkorlar tomonidan sotib olindi. Jumladan, 754 bosh qo‘y Konimex tumanidagi “Usen ota” chorvachilik fermer xo‘jaligida parvarishlanmoqda.

– Shu paytgacha o‘zimizning qorako‘l qo‘y zotini ko‘paytirib kelayotgan edik, – deydi ushbu fermer xo‘jaligi rahbari Azamat Ko‘chqorbekov. – Bizning cho‘l sharoitiga mos keladigan bundan boshqa zot bo‘lmasa kerak, degan o‘yda edik-da. Lekin “Bayad” zoti ham issiqqa, ham sovuqqa birdek chidamli ekanligi bilan chorvadorlar ishonchini oqlayapti. Ular Navoiy viloyatiga juda tez moslashib ketdi. Masalan, biz sotib olgan qo‘ylarning 119 boshi sovliq edi, ulardan 100 foiz qo‘zi oldik. Bu qo‘ylar yer tanlamas ekan. Qishning qahratoni, yozning jaziramasida ham kasallanmadi, shukrki, chiqim ham bo‘lgani yo‘q. Shuning uchun endi “Bayad” zotini ham ko‘paytirishga qaror qildik.

Chorvachilik va parrandachilik ilmiy-tadqiqot institutidan ma’lum qilishlaricha, Mo‘g‘ulistondan olib kelingan qo‘ylarni mahalliy jaydari zot bilan chatishtirish orqali yangi zot yaratish ishlari allaqachon boshlab yuborildi. Bunda qo‘ylarning jun mayinligini saqlab qolish, go‘sht chiqimini oshirishga alohida e’tibor qaratilyapti.

“Bayad” zotining jussasi kichik ko‘rinsa-da, go‘shti tosh bosadi va juda shirin. Respublikamizning nafaqat issiq, balki sovuq mintaqalariga ham moslashib ketadi. Chunki dastlabki o‘rganishlarga qaraganda, 40 darajagacha sovuqqa, 60 – 65 darajagacha issiqqa ular bardosh beradi.

Chindan ham, “Bayad” zotli qo‘ylar cho‘l iqlim sharoitiga moslashuvchanligi, hosildorligi past yaylovlarda ham yashovchanligi yuqoriligi bilan ajralib turadi. Qo‘chqorlarning bo‘yi 78 – 80 sm., sovliqlarniki 70 – 73 santimetrni tashkil etib, tanasi uzun va yaxshi rivojlangan. Qo‘chqorlarning tirik vazni 70 – 75 kg., sovliqlarniki 52 – 54 kg., 1,5 yoshli qo‘ylarniki 47 – 49 kiloga yetadi.

O‘zbekistonda yaylovlarning katta qismi – 16 million gektarga yaqini cho‘l yaylovlari ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, Mo‘g‘ulistondan keltirilayotgan qo‘y zotlari cho‘l mintaqalarida chorvachilikni rivojlantirish uchun ayni muddaodir.

### Chorvadorlarga imtiyoz

Navoiy viloyati veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish boshqarmasi boshlig‘i Oybek Nizomovning aytishicha, Mo‘g‘uliston qo‘y zotlari orasidan “Bayad” zoti tasodifan tanlangani yo‘q. Davlatimiz rahbarining o‘tgan yili Navoiy viloyatiga tashrifi chog‘ida chorvachilikda samaradorlikni oshirish, cho‘l yaylovlaridan unumli foydalanish maqsadida Mo‘g‘uliston bilan hamkorlik qilish, uning ilg‘or tajribalarini o‘rganish bo‘yicha topshiriq berilgan edi. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston delegatsiyasi ushbu davlatda bo‘lib, chorvachilikdagi tajriba o‘rganildi. Yurtimiz olimlari va mas’ullar fikrlashib, cho‘l hududiga mos “Bayad” zotini sotib olish bo‘yicha tugal fikrga kelishdi.

– Xorijdan yangi qo‘y zotlari olib kelinib ko‘paytirilayotgani Prezidentimiz tomonidan Navoiy viloyatidagi mavjud 9 mln. gektar yaylovlardan unumli foydalanish, chorvani 10 karra ko‘paytirish bo‘yicha belgilab berilgan topshiriq ijrosi sari tashlangan muhim qadam bo‘ldi, – deydi Oybek Nizomov. – Bu jarayonda yaylovlarga ozuqa ekinlari ekib, mahsuldorligini oshirish chora-tadbirlari ham ko‘rilyapti. Natijada “Bayad” qo‘y zotini ko‘paytirishga ishtiyoqmand chorvadorlar safi tobora kengaymoqda. Yurtimizning turli hududlaridan kelgan cho‘ponlar navoiylik fermerlar tajribasi bilan yaqindan tanishgach, Mo‘g‘ulistondan qo‘y sotib olishga qat’iy qaror qilishganini bildirishyapti.

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, Prezident qaroriga muvofiq, chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyati har tomonlama qo‘llab-quvvatlanayotgani, xususan, Mo‘g‘ulistondan mayda shoxli mollarni O‘zbekistonga import qilishda imtiyozlar paketi taqdim etilgani chorvadorlarga katta ko‘mak bo‘layotir.

Gap shundaki, importga keladigan mayda shoxli mollar tannarxi oshib ketishining oldini olish maqsadida 2025-yil 1-avgustdan 2027-yil 31-dekabrga qadar havo transportida tashish xarajatlarining 50 foizi Davlat byudjeti hisobidan qoplab beriladi. Qo‘shilgan qiymat solig‘ini to‘lash muddatini foizlar hisoblanmagan holda to‘lov ta’minotisiz kechiktirib to‘lash imkoniyati yaratiladi. Bundan tashqari, chorvachilik yo‘nalishida jalb qilingan xalqaro moliya institutlarining kredit mablag‘larini tadbirkorlik subyektlariga yillik 10 foiz stavkada besh yil muddatga 2 yillik imtiyozli davr bilan ajratilishi belgilangan.

Bu hali hammasi emas. Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasiga Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va viloyat hokimlarining kafilligi asosida bir oy muddatda qaytarish sharti bilan Veterinariya xizmati va chorvachilikni rivojlantirish jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan tadbirkorlik subyektlariga Mo‘g‘ulistondan mayda shoxli mollarni yetkazib berishda moliyaviy ko‘mak ko‘rsatish huquqi berildi. Bu esa shartnoma asosida mayda shoxli mollarni olib kelishda mablag‘lar taqchilligining oldini olishga yordam beradi.

Shuningdek, Yaylov yerlaridan samarali foydalanishni tashkil etish va ularni muhofaza qilish, qorako‘lchilik, teri va jun sanoati sohalarini yanada rivojlantirish bo‘yicha respublika komissiyasi qaroriga asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Buxoro, Jizzax, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand va Surxondaryo viloyatlari yaylov xo‘jaliklari balansidagi yerlar Mo‘g‘ulistondan kamida 1 000 bosh qo‘y import qilgan tadbirkorlik subyektlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ijaraga beriladi. Bunda naslchilik va seleksiya ishlarini rivojlantirish orqali mahsuldor qo‘ylar bosh sonini ko‘paytirish hamda yaylovlarda izen, teresken, quyrovuq, kamforosma, cho‘g‘on, erkak o‘t, oq (qora) saksovul singari ozuqabop o‘simlik turlarini ekish talabi qo‘yiladi.

Chorvadorlarga taqdim etilayotgan ushbu imtiyozlar import qilinayotgan mayda shoxli mollarni mahalliy sharoitga moslashtirish, ularni ko‘paytirish bo‘yicha amaliy choralarning natijadorligini oshiradi, albatta.

Binobarin, O‘zbekiston va Mo‘g‘uliston o‘rtasidagi o‘zaro ishonch, tenglik va mushtarak manfaatga asoslangan bugungi munosabatlar qishloq xo‘jaligi sohasida hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, chorvachilik tarmog‘ida qo‘shma loyihalarni amalga oshirishda yangi ufqlarni ochib berdi. Bu esa, hademay, o‘zining yuksak samaralarini berib, ichki bozorni sifatli va arzon mahsulotlar bilan to‘ldirish, o‘zaro tovar ayirboshlash hajmi keskin ko‘tarilishiga xizmat qiladi.

**Said RAHMON**
**(“Xalq so‘zi”).**






## Yarim asr deganda uy-joyiga egalik huquqini qo‘lga kiritdi



*Xalq deputatlari Samarqand viloyati Kengashining navbatdagi o‘n beshinchi sessiyasi bo‘lib o‘tdi. Unda O‘zbekiston Respublikasining “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, viloyatning bir qator tuman va shaharlarida istiqomat qiluvchi 220 nafar fuqaroning mulk huquqi qonuniy tartibda e’tirof etildi.*

Shu o‘rinda aniq misollarga to‘xtalsak, pastdarg‘omlik Qalandar Qorayev 1965-yilda qurilgan uy-joyiga, oqdaryolik Nodira Jamolova esa 1959-yilda tiklangan va istiqomat qilib kelayotgan uyiga nisbatan rasmiy huquq egasi sifatida tan olindi.

– Yashab turgan xonadonning hujjati bo‘lmasa, turli masalalarda muammolarga duch kelaverar ekansan, – deydi Q. Qorayev. – O‘tgan safargi aksiyada e’tiborsizlik qilganimiz uchun egalik huquqi ololmagan edik. Bu gal kadastr idorasi xodimlari o‘zlari uyimizga kelib, yerimizni o‘lchadi, uy-joyimizni va hujjatlarni ko‘rdi. Tegishli idoralardan ham xulosalar olindi. Nihoyat, bugun uyimizga egalik huquqini qo‘lga kiritdik.

## Yirik loyihaning ilk qadami

*Samarqandda chiqindidan elektr energiyasi ishlab chiqaruvchi “SUS Environment Samarkand” zavodining qurilishi boshlandi. XXRning “Shanghai SUS Environment” kompaniyasi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan loyiha uchun 150 mln. AQSH dollari miqdorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiya jalb qilinmoqda.*



Loyiha doirasida Samarqand shahrining So‘lim qo‘rg‘on hududidan 15 gektar maydon ajratilgan bo‘lib, kuniga 1500 tonna chiqindini termik qayta ishlash va yiliga 240 mln. kVt elektr energiya ishlab chiqarish quvvatiga ega zavod quriladi.

Yangi zavod qurilishi boshlanishi munosabati bilan o‘tkazilgan tadbirda Samarqand viloyati hokimi vazifasini bajaruvchi Adiz Boboyev ishtirok etib, hududda chiqindilarni qayta ishlash, undan energiya ishlab chiqarish yo‘nalishidagi mazkur loyihaning energiya barqarorligini ta’minlashdagi ahamiyati katta ekanini ta’kidladi.

Korxonada 150 tagacha yangi ish o‘rni yaratiladi.

## Qayta tiklanuvchi energiya — ham iqtisod, ham daromad

*Joriy yilning birinchi yarmida Samarqand viloyati bo‘yicha 3 mingga yaqin obyektlarga quyosh panellari o‘rnatilgani “Yashil energiya” axborot tizimida tasdiqlangan va bunda tadbirkorlik subyektlari peshqadamlik qilmoqda.*



Masalan, Urgut tumanidagi “Sam Ferre” MChJ hududiga bugungi kunda 2 MVt quyosh panellari o‘rnatilgan bo‘lib, u tarmoqda kuchlanishlarning oldini olishga va korxona atrofidagi iste’molchilarni muqobil energiya manbai bilan ta’minlashga xizmat qilmoqda. Yoki “Urgut” erkin iqtisodiy zonasida faoliyat olib borayotgan “Kamalak tekstil” korxonasining tom qismiga ham 350 kVt/s quvvatli quyosh panellari o‘rnatildi. Natijada tadbirkor o‘z ehtiyojidan ortiqcha elektr energiyani davlatga sotmoqda.

Korxona tomonidan 2024-yilda Germaniya va Belgiyaning eng so‘nggi rusumdagi zamonaviy texnologiyalari asosida qiymati 309,3 mln. so‘mlik sifatli gilamlar, tafting va polipropilen ip mahsulotlari ishlab chiqarilgan. Shuningdek, o‘tgan yili 5,6 mln. AQSH dollarilik gilam mahsulotlari Markaziy Osiyo va Yevropa davlatlariga eksport qilingan. Joriy yilda ham natijalar bundan-da yuqori bo‘lishi kutilmoqda.

**Abdulaziz YO‘LDOSHEV**
**(“Xalq so‘zi”).**

**Ko‘cha nomi va ko‘chmas mulk obyekti raqami ko‘rsatkichini o‘rnatish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.**

# YUQORI SAMARADORLIK VA NATIJADORLIK

## MA’NAVIY YETUK KADRLARNING YUKSAK KASBIY SALOHIYATI HAMDA BOSHQARUV MAHORATIGA BOG‘LIQ

*Yangi O‘zbekistonni bunyod etishning hozirgi bosqichi davlat va xo‘jalik boshqaruvining barcha bo‘g‘inida faoliyat yuritayotgan rahbar va xodimlarning salohiyatini zamon talablari asosida yangi darajaga ko‘tarish bilan birga, ularning o‘z lavozimlarini eskicha ish uslubida egallab band qilishni emas, balki zimmasiga yuklatilgan vazifalarni yangicha yondashuv asosida fidoyilik va omilkorlik bilan amalga oshirishni taqozo etmoqda.*



### Farmon va ijro

Bugungi tezkor davr ilgari surayotgan da’vatlarni hisobga olgan holda, Prezidentimiz tomonidan shu yil 14-iyulda qabul qilingan “Davlat boshqaruvi tizimida samaradorlik, proaktivlik va natijadorlikni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonda ushbu yo‘nalishda bajarilishi lozim bo‘lgan tadbirlar tizimi belgilab berildi. Zero, yuqori samaradorlik hamda natijadorlikka davlat va xo‘jalik boshqaruvining barcha bo‘g‘inida o‘zaro uzviy, ayni paytda muvofiqlashgan faoliyatni ta’minlash orqali erishiladi.

So‘nggi yillarda agrar sohada amalga oshirilayotgan jadal islohotlar tufayli qishloq xo‘jaligida ma’muriy buyruqbozlik tizimiga barham berilib, ilm-fanga tayangan, innovatsiyalar, ilg‘or tajriba va zamonaviy texnologiyalar hamda bozor me’yorlariga asoslangan boshqaruv tamoyillari joriy qilinmoqda. Raqamlashtirish jarayonlari iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari qatori qishloq xo‘jaligi sohasida ham keng qamrovda olib borilmoqda. “Aqlli qishloq xo‘jaligi” atamasi soha xodimlari muloqotida odatiy iboralardan biriga aylangani buning yaqqol dalilidir.

Ta’kidlash kerakki, bunday yangilanishlar sohamiz oldiga mahalliy, mintaqaviy va global miqyosda kechayotgan jarayonlarni chuqur tahlil etgan holda, yaqin istiqbolda kutilayotgan holatlarni bashorat qilibgina qolmay, balki kelajakda yuzaga keladigan vaziyatda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash bo‘yicha kreativ yechimlar topishga qodir bo‘lgan kadrlar korpusini shakllantirishni taqozo etmoqda. Bu jarayonda xodimlarning kasbiy kompetentligini muntazam oshirish ustuvor vazifalardan biri sifatida ilgari surilmoqda.

Vazirlik va uning huzuridagi respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari, Qishloq xo‘jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazi, shuningdek, tizimdagi 24 ta ilmiy-tadqiqot va 9 ta oliy ta’lim muassasasi salohiyatiga tayanilgan tarzda agrar sohadagi inson resurslarini rivojlantirish yo‘lida tizimli faoliyat olib borilmoqda. Natijada bugungi kunda vazirlik markaziy apparatida faoliyat yuritayotgan xodimlarning 24 nafari (11 foizi)ni ilmiy darajaga ega, 41 nafari (19 foizi)ni soha uchun dolzarb mavzularda mustaqil tadqiqotlar olib borayotgan, 17 nafari (8 foizi)ni xorijiy oliy ta’lim muassasalari bitiruvchilari, 29 nafari (14 foizi)ni chet tillarni mukammal o‘zlashtirgan xodimlar tashkil etadi. Bu, o‘z navbatida, ilm-fan yutuqlari, innovatsiyalar, ilg‘or tajriba va resurstejamkor texnologiyalarni mamlakatimizning har bir mintaqasi tuproq-iqlim sharoitiga mosligiga qarab, tezkorlik bilan joriy qilishda amaliy takliflar tayyorlashda qo‘l kelyapti.

Keyingi yillarda tizimda yosh iste’dodlarni aniqlash maqsadida talabalar o‘rtasida “Yoshlar va innovatsion qishloq xo‘jaligi”, doktorantlar va yosh tadqiqotchilar orasida “Agroinnovatsiya va yoshlar”, boshqaruv apparati yosh xodimlari o‘rtasida esa “Istiqbol umidlari” tanlovlari muntazam o‘tkazib kelinmoqda. Oxirgi ikki yil davomida ushbu tanlovlar g‘oliblari hamda amalga oshirilayotgan investitsiya va grant loyihalari, hamkorlik dasturlari doirasida 500 ga yaqin xodimlar, tadqiqotchilar va talabalar malaka oshirish, tajriba orttirish va o‘quv amaliyotlarini o‘tash uchun chet davlatlarda xizmat safarida bo‘ldi. Mazkur tashriflarda o‘rganilgan ilg‘or tajribalarni amaliyotga joriy qilish bo‘yicha xulosa va takliflar umumlashtirilib, ommalashtirildi.

E’tiborlisi, vazirlik tizimidagi xodimlarning kasbiy salohiyatini oshirish ma’naviy-ma’rifiy ishlar, davlat tilini joriy qilish bilan hamohanglikda olib borilmoqda. Holbuki, sohada faoliyat yuritayotgan har bir xodim davlat fuqarolik xizmatchisi sifatida o‘z vazifasini bajarishi uchun zarur bo‘lgan siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, kasbiy va ma’naviy bilimlar qatorida yozma va og‘zaki nutq madaniyatiga ham ega bo‘lishi lozim.

Tizimdagi xodimlarning joylardagi o‘quv mashg‘ulotlarida foydalanishi uchun soha mutaxassislari, xorijiy ekspertlar, oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari ilmiy xodimlari va professor-o‘qituvchilar jalb qilinib, siyosiy, huquqiy, iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy, kasbiy mavzularda 56 ta, davlat tilida idoraviy ish yuritish asoslari yuzasidan 20 ta mavzu bo‘yicha videodarslar tayyorlanib, quyi organlarga yuborildi. Bundan tashqari, qishloq xo‘jaligi atamalarining izohli lug‘ati, O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi ensiklopediyasining 1-jildi chop etildi.

2024-yildan boshlab vazirlik markaziy apparatida kasbiy ma’rifat soatlari o‘tkazilishi tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilgani e’tiborga molik. Bunday ma’rifiy tadbirlar o‘tgan yili 52 ta, joriy yilning 7 oyi davomida esa 29 ta dolzarb mavzu bo‘yicha o‘tkazildi. Qolaversa, o‘tgan yili vazirlik tizimida “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimli yo‘lga qo‘yilgan tashkilot” tanlovi o‘tkazildi. Uning doirasida 767 ta tashkilot faoliyati o‘rganilib, har tomonlama baholandi. Yakuniy natijalarga ko‘ra, reyting ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lgan 20 ta tizim va hududiy tashkilot Qishloq xo‘jaligi vazirligi, Agrosanoat majmui kasaba uyushmalari Respublika kengashi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazining qo‘shma diplomi, qimmatbaho sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Ushbu yo‘nalishdagi ishlar izchil davom ettirilib, joriy yilning may-iyun oylari davomida 707 ta tashkilot faoliyati o‘rganildi. Baholash yakunlariga qaraganda, ularning 604 tasi yoki 85,6 foizida faoliyat talab darajasida tashkil etilganligi, 103 tasi yoki 14,4 foizida esa ishlarni faollashtirish lozimligi ma’lum bo‘ldi. Pirovardida quyi bo‘g‘inlarda rahbarlar tomonidan inson resurslarini rivojlantirish va boshqarish, yuridik xizmat xodimlarining kasbiy salohiyatini oshirish ishlarini hamkorlikda tashkil etish zarur, degan to‘xtamga kelindi.

Binobarin, agrar tarmoqda erishilayotgan yutuqlarda, aytish joizki, islohotlarning yangi bosqichi talablari asosida soha xodimlari salohiyatini oshirishga qaratilgan ma’naviy-ma’rifiy ishlar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Buning samarasi o‘laroq, 2024-yilda “Eng namunali vazirlik va idora” tanlovida vazirligimiz faoliyati e’tirof etilib, 1-o‘ringa sazovor bo‘ldi hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus sovrini bilan mukofotlandi. Bunday yuksak e’tibor faoliyatimiz natijadorligini oshirishda katta rag‘bat bo‘lishi bilan birga, sohani sifat jihatdan rivojlantirish, biznes muhitini yanada yaxshilashda tashabbus ko‘rsatishga ruhlantirmoqda.

**Eshmirza ABDUALIMOV,**
**O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi vaziri maslahatchisi.**

### Tashabbus

*Bugungi kunda yurtimizda ma’naviy-ma’rifiy ishlarda faol ishtirok etayotgan muborak haj amalini ado qilib kelgan yurtdoshlarimizning sa’y-harakatlari har qanday insonni quvontiradi. Ular, bir qarasangiz, ajralish yoqasiga kelgan oilalarni yarashtirayotgan, boshqa bir paytda muhtojlarga yordam qo‘lini cho‘zayotgan, shu bilan birga, yo‘ldan adashganlarni ma’rifatga chorlayotgan fidoyilarga aylangan. Bu ezgu harakatlar Prezidentimiz tashabbusi bilan hayotga ko‘chgan “Inson qadri uchun, inson baxti uchun” tamoyilining amaldagi yorqin ifodasidir.*

# YANGI O‘ZBEKISTONNING MA’NAVIYAT TARG‘IBOTCHILARI



O‘tgan yili haj ziyorati ishtirokchilari “Yangi O‘zbekiston fidoyisi bo‘lib, ma’naviyat targ‘ibotchisiga aylanamiz”, degan tashabbusni ilgari surgan edi. Mana, bugunga kelib ushbu tashabbus asosida yarim milliondan ortiq kam ta’minlangan, boquvchisini yo‘qotgan va ehtiyojmand oilalarga 6 mlrd. 300 mln. so‘mdan ziyod moddiy yordam ko‘rsatildi. Shuningdek, aholi o‘rtasida qariyb 100 mingta ma’naviy-ma’rifiy uchrashuvlar o‘tkazildi, bu jarayonda turli millat va elat vakillariga ham alohida e’tibor qaratildi.

2025-yilda ham 15 ming nafar yurtdoshimiz haj amalini ado etib, ana shu xayrli ishlarni davom ettirmoqda. Bu yilgi haj mavsumi tarixiy, ma’naviy va tashkiliy jihatdan muhim voqealarga boy bo‘ldi. O‘zbekistonlik ziyoratchilar uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlar – aviaparvozlar, shinam mehmonxonalar, malakali tibbiyot xodimlari va yuksak darajadagi tashkiliy masalalar dunyo musulmonlarining e’tirofi va havasiga sazovor bo‘ldi.

E’tiborga molik jihatlardan yana biri – davlatimiz rahbarining ziyoratchilar bilan bevosita telefon orqali muloqot qilib, ularning ahvolidan xabar olganidir. Bu g‘amxo‘rlik ziyoratchilarimiz qalbida chuqur taassurot qoldirdi. Shu ruhda Arafot maydonida O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi, muftiy shayx Nuriddin Xoliqnazar boshchiligida “Yangi O‘zbekistonning tinchlik va ma’naviyat targ‘ibotchilari bo‘lamiz” degan ezgu chaqiriq ilgari surildi.

Bugungi kunda haj amalini ado qilib qaytgan yurtdoshlarimiz butun mamlakat bo‘ylab mahallalarda faol targ‘ibot ishlarini olib bormoqda. Masalan, dastlabki tadbirlar davomida Namanganda 80 ta, Toshkent shahrida 20 ta xonadonda nogironligi borlar, notinch oilalar va ijtimoiy himoyaga muhtojlar holidan xabar olindi. Ayni paytda, xayriya ishlarining ko‘lami izchil kengayib bormoqda.

Aniq amaliy ishlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, Farg‘ona shahrida istiqomat qiluvchi uch nafar farzandning onasi Nigora Japarovaning hayoti shunday ezgu tashabbus natijasida yaxshi tomonga o‘zgardi. U haj ziyoratchilari ko‘magida uch xonali shinam uyga ega bo‘ldi.

Yoki Farg‘onada ajrim yoqasiga kelgan yosh oila yarashtirilib, uch nafar bola yetim qolishining oldi olindi. Tinchlik va ma’naviyat targ‘ibotchilari tomonidan aniqlangan ishsiz xotin-qizlar uchun namanganlik tadbirkor Faxriddin To‘rayevning ishlab chiqarish sexida ish o‘rinlari yaratildi. Bu mahalliy tadbirkorlik va ma’naviyat uyg‘unligidagi savobli ishlarning samarasidir.

Bugungi murakkab zamonda yaxshilik va bag‘rikenglikni targ‘ib qilish har qachongidan ham muhim. Zero, inson yashaydigan muhit uning dunyoqarashi va xatti-harakatlariga katta ta’sir ko‘rsatadi. Jamiyatda ezgu ishlar qanchalik ko‘paysa, Vatanga sadoqatli, oliyjanob insonlar soni shunchalik ortib boradi.

Shu maqsadda nuroniylar, haj ziyoratchilari va mahalladagi faollar “mahalla yettiligi” bilan hamkorlikda ma’naviy-ma’rifiy tadbirlarga puxta tayyorgarlik ko‘rmoqda. Xonadonlar kesimida aniqlangan ehtiyojmand oilalar ro‘yxati asosida amaliy yordam ishlari davom etmoqda.

Boshqa mintaqalarda notinchlik va muhtojlik insonlar halovatini buzgan bir paytda, yurtimizda tinchlik va farovonlik hukm surmoqda. Bu ne’matlar uchun shukronalik bildirish, ularni asrab-avaylash ham har bir fuqaroning burchidir.

Haj ziyoratidan qaytgan yurtdoshlarimiz faqat moddiy yordam bilan cheklanib qolmay, shukronalik tuyg‘usini, kitobxonlik, ilm-ma’rifatga mehrni ham targ‘ib qilmoqda. Zero, islom dinida ilm masalasiga alohida ahamiyat beriladi. Ilk nozil bo‘lgan oyat **“O‘qi!”** deb boshlanishi ham buning dalilidir. Payg‘ambarimiz Muhammad alayhissalom: *“Kim ilm talab qilsa, Alloh unga jannat yo‘lini osonlashtiradi”,* deganlar.

Ulug‘ sahoba Ali ibn Abu Tolib roziyallohu anhu: *“Ilm moldan yaxshidir, chunki u seni muhofaza qiladi, molni esa sen qo‘riqlaysan. Ilm hokim, mol esa mahkumdir”,* degan.

Qisqacha aytganda, haj amalini ado etgan yurtdoshlarimiz bugun chin ma’noda ma’naviyat yetakchilariga aylandi. Ular xalqimiz orasida to‘y va marosimlarni kamxarj, ixcham o‘tkazishga chaqirmoqda, oilalarni yarashtirish, yoshlarni tarbiyalash, muhtojlarga ko‘maklashishda faol ishtirok etmoqda. Zero, ulug‘larimiz aytganidek, yaxshilikning mukofoti faqat yaxshilikdir.

**Zayniddin ESHONQULOV,**
**O‘zbekiston musulmonlari idorasi raisi o‘rinbosari,**
**“Haj – 2025” delegatsiyasi a’zosi.**

# SHAMOLNI IZMIGA BO‘YSUNDIRAYOTGANLAR

## yoxud 20 MVt quvvatga teng Chorvoq shamol elektr stansiyasi loyihasi haqida

1

So‘nggi yillarda, ayniqsa, shamol energetikasini rivojlantirish borasida amaliy ishlar boshlandi.

Yangi O‘zbekiston har bir yo‘nalishda ilg‘or mamlakatlar tajribasiga asoslangan holda, o‘zaro hamkorlik negizida mahalliy kesimdagi islohotlarni izchil tatbiq etib bormoqda.

Bu borada O‘zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o‘rtasidagi davlatlararo munosabatlar strategik sheriklik, o‘zaro ishonch va uzoq yillik do‘stlik tamoyillari asosida izchil rivojlanmoqda. Ayni chog‘da, davlatlarimiz o‘rtasidagi diplomatik aloqalar o‘rnatilganiga 33 yil to‘lgani o‘zaro hamkorligimizning bundan keyin ham jadal rivojlanishiga zamin bo‘ladi. Asosiysi, bunday keng qamrovli hamkorlik mamlakatlarimizning milliy manfaatlari, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti va xalqaro nufuzini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu o‘rinda “O‘zbekgidroenergo” AJ tomonidan qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish yo‘nalishida Xitoyning nufuzli tashkilotlari bilan hamkorlikda qator investitsiya loyihalari muvaffaqiyatli amalga oshirilayotganini alohida ta’kidlash joiz. Xususan, 2023-yil 17-oktyabrda Xitoyning Shinjon-Uyg‘ur avtonom rayoni savdo departamenti ko‘magida “O‘zbekgidroenergo” AJning birinchi grant loyihalarni jalb qilish doirasida O‘zbekistonda shamol elektr stansiyasini qurish grant loyihasini amalga oshirish bo‘yicha o‘zaro kelishuv memorandumi imzolangan.

Mazkur kelishuv asosida bugungi kunda Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida “Chorvoq shamol elektr stansiyasini qurish” loyihasi doirasida amaliy ishlar boshlab yuborilgan.

Xitoy tomonidan ajratilgan to‘g‘ridan-to‘g‘ri beg‘araz ko‘mak, grant mablag‘larining qiymati 28,0 mln. AQSH dollarini tashkil etadi.

Loyihani amalga oshirish muddati 2025-2026-yillarga rejalashtirilgan. Ushbu loyiha doirasida 20 MVt quvvatga teng shamol elektr stansiyasi tiklanadi. Bunda yiliga o‘rtacha 50 mln. kVt-soat elektr energiyasi ishlab chiqariladi. Shu bilan birga, 30 ta yangi ish o‘rni yaratiladi.

Xitoyning Shinjon-Uyg‘ur avtonom rayoni savdo departamenti tomonidan loyihaning qurilish ishlarini olib borish uchun o‘tkazilgan tenderda “TBEA Co., Ltd” kompaniyasi g‘olib bo‘lib, bosh pudratchi etib tanlangan.

Xo‘sh, shamolni jilovlash va undan foydalanish nima beradi?

Mazkur loyiha foydalanishga topshirilgandan so‘ng qariyb 20 ming xonadon elektr energiya bilan ta’minlanadi.

Bugungi kunda bosh pudratchi tomonidan Toshkent viloyati hokimining tegishli qarori asosida ajratilgan 10 gektarga teng yer maydonida (Burchmulla hududida) qurilish ishlari olib borilmoqda hamda Xitoydan olib kelinayotgan zamonaviy texnologik asbob-uskunalarni bosqichma-bosqich montaj qilish ishlari davom ettirilmoqda.

Ushbu shamol elektr stansiyasi orqali ishlab chiqarilgan elektr energiyasi yiliga 811,1 ming metr kub tabiiy gaz yoki 3,15 ming tonna ko‘mirni tejash imkonini beradi. Bu nafaqat atrof-muhit muhofazasi, balki iqtisodiy jihatdan ham samarali yechim hisoblanadi.

Ma’lumot uchun aytish joiz, birmuncha vaqt muqaddam “O‘zbekgidroenergo” AJ tomonidan mamlakatimizda shamol stansiyasi orqali elektr energiya olish borasida birinchi qadam qo‘yilgan edi. Bu ilk shamol elektr texnologiyasi Toshkent viloyatining Bo‘stonliq tumanida 750 kVt energiya ishlab chiqarish imkoniyatiga ega bo‘lgan qurilmadir.

Qayd etish lozimki, “O‘zbekgidroenergo” AJ faoliyatiga 2017-yil 18-may sanasida asos solingan bo‘lsa, shamol stansiyasining ham o‘sha yilning o‘zidayoq ekspluatatsiyaga topshirilganligi sohadagi yangi izlanishlar va mashaqqatli mehnat natijasini ifodalaydi.

Tom ma’noda, ekologik toza energiya ishlab chiqarish hajmini oshirish bo‘yicha joriy shamol elektr stansiyasining qurilishi ham shu sa’y-harakatlarning uzviy davomi bo‘lib, ushbu yo‘nalishni rivojlantirishda muhim bosqich hisoblanadi.

**Rahim ShERQULOV**
**(“Xalq so‘zi”).**




## Bunga sud orqali ham yechim topilmadi. Nega?

*Asalari yuz gramm nektar yig‘ish uchun taxminan bir millionta gulga qo‘nadi. Tinib-tinchimas jonivor bir kilogramm asal to‘plash maqsadida bir necha yuz ming kilometr masofani bosib o‘tar ekan. Bu – Yer sayyorasini kamida o‘n marta aylanib chiqish bilan barobar.*

### Achchiq, ammo ochiq gaplar

E’tibor bering, buyuk olim Eynshteynning fikriga ko‘ra, odam kislorodsiz bor-yo‘g‘i uch daqiqa, suvsiz esa uch kun, asalarilarsiz esa to‘rt yil yashay oladi, xolos. Shu jihatdan olganda, mutaxassislar asalarilarning hozirgi miqdori barcha o‘simliklarni changlatish uchun yetarli emasligini aytishadi. Dunyo bo‘yicha asalarilarning qirilib ketayotgani global muammoga aylanayotgani haqida Birlashgan Millatlar Tashkiloti ham bejiz bong urayotgani yo‘q.

O‘zbekistonda asalarichilikni rivojlantirishga katta e’tibor qaratilyapti. Buning samarasi o‘laroq yurtimizda yetishtirilgan asal ichki va tashqi bozorda o‘z o‘rnini egallamoqda. Ammo tan olish kerak, Qashqadaryo viloyatida asalarichilik boshi berk ko‘chaga kirib borayotgani ham bor gap. Asal yetishtirishda vohada yuzaga kelayotgan muammolar va ba’zi kamchiliklarni soha mutaxassislari bilan hamkorlikda o‘rganib chiqishga harakat qildik.

### “Bir kunda asalarilarimdan ayrildim”

Avvalo, aytish joiz, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 12-iyundagi tegishli qarori bilan Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasiga qishloq xo‘jaligi ekinlarini asalari yordamida changlatish bo‘yicha quyidagi vazifalar yuklatilgan:

– qishloq xo‘jaligi ekinlari hosildorligini oshirish uchun asalari yordamida changlatish xizmatini ko‘rsatishni tashkil etish;

– asalarichilik subyektlari, paxtachilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo‘jaliklari va paxta-to‘qimachilik klasterlari o‘rtasida tuziladigan shartnomalar reestrini yuritish.

Ushbu tartibga ko‘ra, asalarichilik subyektlari qishloq xo‘jaligi ekinlaridan asal yig‘ish bilan bir qatorda, ularni changlatgani uchun shartnoma asosida xizmat haqi ham olishi mumkin. Ammo Qashqadaryo viloyati misolida oladigan bo‘lsak, bu tartib amalda deyarli ishlayotgani yo‘q. Chunki mahalliy fermerlar va klaster korxonalari rahbarlari ekinni asalari yordamida changlatishning samaralari haqida yetarli ma’lumotga ega emas.

Asalarichilar ham shartnoma asosida ekinlarni changlatib, bu xizmati uchun pul olish haqida qayg‘urayotgani yo‘q. Shunchaki fermerlar ularga qishloq xo‘jaligi ekinlari, asosan, g‘o‘za gulidan asal yig‘ish uchun imkoniyat yaratishsa, dalaga kimyoviy ishlov berishdan avval ularni ogohlantirishsa bo‘lgani. Hozirgi sharoitda esa fermerlar bu ishni hech qanday ogohlantirishsiz, o‘zboshimchalik bilan amalga oshirmoqda. Natijada ko‘plab asalarichilar bir kunda barcha asalarisidan ayrilib, dodini kimga aytishni bilmay qolishayotir.

Misol uchun, 2025-yilning iyun-iyul oylarida fermerning o‘z dalasiga kuchli kimyoviy preparatlarni qo‘llashi natijasida Qarshi tumanilik Dilshod Umarov 200 oila asalarisining barchasini, shu tumanlik Tolib Bobonazarov 105 oila asalarisining 57 foizini, Azamat Sultonov 95 oila asalarisining 53 foizini yo‘qotgan.

270 oila asalarisini Nishon tumanidagi paxta dalalariga olib borgan Alisher Xolmurodov hamda Bahodir Boymatov ham fermerning ogohlantirmasdan o‘z dalasiga kimyoviy ishlov berishi oqibatida qariyb 70 foiz asalarisidan ayrilgan.

Shuningdek, chiroqchilik Fayzulla Yangiboyevning 170 oila, Eldor Abdiyevning 80, kosonlik Otamurod Do‘stmurodovning 100, Bobomurod Aslanovning 30, mirishkorlik Sardor Ko‘chakovning 135, Shuhrat Yangiboyevning 40, Mahmud Odnamurodovning 36, Dilshod Odnamurodovning 60, kitoblik O‘lmas Azimovning 50, muboraklik Qahramon G‘ulomovning 100 oila asalarilari ham xuddi shunday sabab bilan bir kunda nobud bo‘lgan. Eng achinarlisi, bu raqamlarni yana davom ettirish mumkin.

– Bu sohaning mehnatini shu ish bilan mashg‘ul odam biladi, – deydi asalarisidan ayrilgan tadbirkorlar. – Biz mavsum uchun harakatni erta bahordan boshlaganmiz. Aprel-may oylarida asalarini tog‘li hududlar, adirliklarda olib yuramiz. Yozga kelib u joylarda gullar qolmaydi. Noiloj paxta dalalariga kelishga majbur bo‘lamiz. Shuncha mashaqqat bilan bu yerga kelib, bir kunda barcha asalarimizdan ayrilish alam qiladi-da, odamga. Fermer bizni ogohlantirib, bir kun muhlat bersa, bir kechada asalarimizni olib chiqib ketar edik-ku!..

### Yangi qonunga ehtiyoj sezilmoqda

Qashqadaryo viloyati asalarichilar uyushmasi raisi Ravshan Boymatovning aytishicha, asalarichilik qishloq xo‘jaligidagi barcha tarmoqlar ichida eng daromadlisi hisoblanadi.

– Masalan, bitta oila 20 uya asalari boqsa yiliga kamida 800 kilogramm asal oladi, – deydi u. – Bugungi bozor narxida bu 64 million so‘m pul, degani. Vaholanki, 20 uya asalari uchun bir kishi bahor va yozda, nari borsa, 6 oy mehnat qilsa bo‘lgani. Yana qaysi sohadan ko‘p kuch va resurs sarflamasdan turib shuncha daromad olish mumkin?! Aksariyat hududlarimizda buning uchun sharoit bor. Lekin shunga qaramay, odamlarimiz bu ishni samarasiz tarmoq sifatida bilishadi. Negaki, hududdagi bitta fermer yoki tomorqachining ogohlantirishsiz o‘z dalasiga kuchli kimyoviy o‘g‘itlarni sepishi natijasida bor asalarilar nobud bo‘lishi mumkin.

Ravshan Boymatov, shuningdek, so‘nggi yillarda asalarichilikni rivojlantirish bo‘yicha hukumatimiz tomonidan ko‘plab huquqiy-normativ hujjatlar imzolangani, biroq asalarichilarning huquqlarini himoya qiladigan, ularga yetkazilgan zararning miqdorini belgilab, aybdordan undirish imkonini beradigan yagona norma yo‘qligini ham ta’kidladi.

– Fermerning ogohlantirishsiz dalasiga kimyoviy ishlov berishi natijasida katta zarar ko‘rgan bir qator asalarichilarimiz bu borada sudga ham murojaat etishdi... Va yutqazishdi, – deydi u. – Negaki, fermer yoki klasterning zimmasida dalaga kimyoviy ishlov berishdan oldin hududdagi asalarichilarni ogohlantirish bilan bog‘liq biror-bir majburiyat yo‘q. Bu hamon vijdon ishi bo‘lib qolmoqda. Sud esa hujjatlarga qarab ish yuritadi. Agar fermerlar, qishloq xo‘jaligi korxonalari bilan asalarichilar o‘rtasida munosabatlarni huquqiy asoslovchi biror-bir me’yoriy hujjat bo‘lganida, fermerlar ham ozgina mas’uliyat sezganida, bu tarmoq jadal rivojlanib ketgan bo‘lardi. Hozir esa munosabatlar arosatda depsinib turibdi...

Maqolani tayyorlash asnosida ko‘plab asalarichilik subyektlari rahbarlari, oilaviy tadbirkorlar bilan ham suhbatlashdik. Ularning aytishicha, sohada muammolar ko‘p. Lekin ekinlarga kimyoviy ishlov berilishi natijasida asalarilarning ommaviy qirilib ketayotgani juda achinarli hol. Xo‘sh, bu muammoga yechim topiladimi?

Sohaga aloqador mutasaddi rahbarlardan aniq javob kutamiz.

**Jahongir BOYMURODOV**
**(“Xalq so‘zi”).**

# JAMIYATNING FAOL ISHTIROKI – ISLOHOTLAR MUVAFFAQIYATI GAROVI

1

Shu ma’noda, Prezidentimizning 2025-yil 14-iyuldagi “Islohotlarni amalga oshirishda istiqbolli tashabbuslarni yanada qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan hujjatdir. U islohotlarning samaradorligini oshirish, yangi g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash va jamiyatning faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgani bilan g‘oyat ahamiyatli. Hujjat mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy o‘sishini ta’minlash jarayonida keng aholi qatlamining ishtirokini hamda ularning turli sohalardagi istiqbolli tashabbuslarini rag‘batlantirish, innovatsion faolligini yanada oshirishning samarali mexanizmlarini joriy qilishga hissa qo‘shadi.



### Istiqbolli tashabbuslar ro‘yobiga keng yo‘l

Farmonning asosiy maqsadi – O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada chuqurlashtirish va jadallashtirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish. Bunda, avvalo, istiqbolli tashabbuslarni aniqlash, qo‘llab-quvvatlash va amaliyotga tatbiq etish orqali islohotlar natijadorligini oshirishga urg‘u qaratiladi.

Shuningdek, Farmon davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va investitsiya muhitini yaxshilashga xizmat qiladi. Shu orqali xorijiy va mahalliy investorlar uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bu esa, o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiyotiga qo‘shimcha sarmoyalarni jalb qilish imkonini beradi. Shuningdek, davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish va qarorlar qabul qilish jarayonini tezlashtirish orqali davlat xizmatlarining sifati yuksaladi.

Mazkur hujjat O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim qadam bo‘lib, mamlakatning yangi marralarga chiqishiga turtki bo‘ladi. Uning ijrosi mamlakatda islohotlarning samaradorligini ro‘yobga chiqarish, innovatsion g‘oyalarni qo‘llab-quvvatlash va jamiyatning faol ishtirokini ta’minlash imkonini beradi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, muvaffaqiyatli islohotlar jamiyatning faol ishtirokisiz amalga oshmaydi. Fuqarolarning fikrini inobatga olish, ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etish muvaffaqiyat omillaridan biridir.

Hech shubhasiz, fuqarolarning ishtiroki olib borilayotgan ishlarning qonuniyligi va adolatliligini ta’minlaydi. Jamiyat fikrini inobatga olish orqali ularning samaradorligi va natijadorligi oshadi. Davlat organlarining mas’uliyatini kuchaytiradi va hisobdorligini ta’minlaydi. Davlat va jamiyat o‘rtasidagi ishonch mustahkamlanadi, bu esa islohotlarning muvaffaqiyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

### Jahon tajribasi bizga nima beradi?

Islohotlarni amalga oshirishda jamiyatning faol ishtirokini ta’minlash borasida Koreya Respublikasi tajribasi e’tiborga loyiq. O‘tgan asrning 90-yillaridagi iqtisodiy chora-tadbirlar jarayonida Janubiy Koreya hukumati fuqarolarning fikrini muntazam ravishda o‘rganib, ularni islohotlarning muhokamasida faol ishtirok etishga jalb qilgan. Bu esa muvaffaqiyatga erishishda muhim ahamiyat kasb etgan.

Yoki Estoniya hukumati raqamli texnologiyalardan foydalangan holda jamiyatning islohotlardagi ishtirokini ta’minlagan. Fuqarolar onlayn platformalar orqali o‘z fikrlarini bildirish, takliflar kiritish va qaror qabul qilish jarayonlarida qatnashish imkoniga ega bo‘lgan.

Kanadada davlat organlari jamiyat bilan muloqot qilish uchun keng ko‘lamli maslahatlashuvlar o‘tkazadi. Bunda fuqarolarning fikrini o‘rganish, ularning ehtiyojlarini aniqlash va islohotlar natijalarini baholashga katta e’tibor qaratiladi.

Xalqaro tajribani o‘rganish O‘zbekiston uchun qator saboqlarni beradi. Birinchidan, davlat organlari va jamiyat o‘rtasida muloqotni kuchaytirish fuqarolarning fikrini muntazam ravishda o‘rganib borishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, islohotlarni amalga oshirishda jamoatchilik eshituvlarini o‘tkazish fuqarolarning fikrlarini inobatga olish muhimligini anglashga ko‘maklashadi. Uchinchidan, raqamli texnologiyalardan foydalangan holda jamiyatning islohotlardagi ishtirokini ta’minlash onlayn platformalar orqali muloqot qilish imkoniyatlarini yaratadi. To‘rtinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kengaytirish ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash va islohotlardagi ishtirokini ta’minlash imkoniyatini oshiradi. Beshinchidan, islohotlar jarayoni haqida ma’lumotlarni ochiq va shaffof tarzda taqdim etish fuqarolarning xabardorligini oshirishga ko‘maklashadi.

Jamiyat a’zolari turli sohalarda o‘z tajribasi va bilimlariga ega. Ularning fikrlarini inobatga olish islohotlarni amaliy va samarali qilishga yordam beradi. Masalan, ta’lim sohasidagi islohotlarda o‘qituvchilar, ota-onalar va talabalarning fikrlarini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. Jamiyat ishtirokida amalga oshirilgan ishlar uzoq muddatli bo‘ladi. Chunki bunday islohotlar jamiyatning ehtiyojlariga javob beradi. Agar bu chora-tadbirlar jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlanmasa, ular bekor qilinishi yoki o‘zgartirilishi mumkin.

Jamiyatning faol ishtirokini ta’minlash uchun amalga oshirilishi mo‘ljallangan loyihalarni jamoatchilik muhokamasiga qo‘yish, turli fikrlarni eshitish va ularni inobatga olish tajribasi O‘zbekistonda keng yo‘lga qo‘yilgan. Ommaviy axborot vositalari orqali islohotlarning maqsadlari, vazifalari va kutilayotgan natijalari haqida jamiyat muntazam ravishda xabardor qilib borilyapti.

Bu boradagi ishlar natijadorligini yanada oshirish uchun keng jamoatchilik va jamiyatning turli qatlamlari vakillari, xususan, yetuk mutaxassislar, yoshlar, tadbirkorlar, faol fuqarolar hamda vatandoshlarning ishtirokini qo‘llab-quvvatlash, yangi texnologiyalar va ilm-fan yutuqlarini integratsiyalash, hamma uchun ochiq muloqot maydonini yaratish, ilg‘or g‘oyalar hamda istiqbolli tashabbuslarni saralash va tanlab olishning samarali mexanizmlarini joriy qilish talab etiladi.

Prezidentimiz Farmonida bu masalalar ham o‘z ifodasini topgan. Buning uchun 2025-yildan e’tiboran har yili “Kelajak uchun” istiqbolli tashabbuslar forumini o‘tkazib borish amaliyoti yo‘lga qo‘yiladigan bo‘ldi. Forum “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan maqsadli ko‘rsatkichlarga erishish jarayonida keng aholi qatlamining istiqbolli tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga hamda ularning faolligini rag‘batlantirish va keng targ‘ib etishga xizmat qiladi.

Strategik islohotlar agentligi forumga kelib tushgan istiqbolli tashabbuslarni yig‘ish, ularning yagona ro‘yxatini shakllantirish, maxsus kraud platformaga joylashtirish va e’lon qilib borishga, shuningdek, ma’qullangan istiqbolli tashabbuslarning tegishli vazirlik va idoralar tomonidan amalga oshirilishini muvofiqlashtirishga mas’ul hisoblanadi.

### Siyosatdan chetda turish – bu o‘z hayotimizga befarqlik

Kezi kelganda yana bir mulohazani aytish joiz. Ko‘pchilik siyosatdan uzoq yurishni afzal ko‘radi. Ularning fikricha, siyosat – boshog‘riq ish, undan chetda bo‘lgan yaxshiroq. Ammo bu noto‘g‘ri fikr. Chunki siyosat – bizning hayotimizning ajralmas qismi. U bizning iqtisodiyotimizga, ta’limimizga, sog‘lig‘imizga va hatto shaxsiy erkinligimizga ham ta’sir qiladi. Shunday ekan, siyosatdan chetda turish – bu o‘z hayotimizga befarq bo‘lish, demak.

Har bir insonning siyosatda ishtirok etishga haqqi bor. Bu nafaqat huquq, balki majburiyat hamdir. Chunki faqatgina shu yo‘l bilan biz jamiyatimizni yaxshi tomonga o‘zgartira olamiz. Agar biz siyosatdan chetda tursak, u holda o‘z taqdirimizni boshqalarning qo‘liga topshirgan bo‘lamiz.

Islohotlar jamiyatimizni yaxshilashga qaratilgan o‘zgarishlardir. Ular har birimizga daxldor. Shuning uchun ham islohotlarda ishtirok etish juda muhim. Biz o‘z fikrimizni bildirishimiz, takliflar berishimiz va islohotlarning amalga oshirilishini nazorat qilishimiz kerak. Agar biz birgalikda harakat qilsak, jamiyatimizni yanada adolatli, demokratik va farovon eta olamiz. Siyosatdan chetda turmang, islohotlarda ishtirok eting!

Tan olish kerak, islohotlar muvaffaqiyati – bu jamiyat va hukumatning birgalikdagi sa’y-harakatlari natijasi. Jamiyatning faol ishtirokini ta’minlash orqali islohotlarning legitimligini oshirish, shaffoflikni ta’minlash, amaliy tajribadan foydalanish va ularning barqarorligiga erishish mumkin. Faqat shundagina islohotlar jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qiladi va xalq farovonligini oshirishga yordam beradi.

Xalqaro tajriba shuni ko‘rsatadiki, fuqarolarning fikrini inobatga olish, tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash va ularni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb etish – islohotlarning muvaffaqiyatida muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekiston bu borada xalqaro tajribani o‘rganib, o‘zi uchun zarur saboqlar chiqarayotgani, islohotlarni amalga oshirishda jamiyatning faol ishtirokini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni ko‘rayotgani o‘z mevalarini bermoqda.

**Sardor XODJANIYAZOV,**
**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti rektori vazifasini vaqtincha bajaruvchi, pedagogika fanlari doktori, professor.**

# BIRINCHI AVGUST G‘ALVALARI

## yoxud oliy ta’limdagi yangilanishlar yigit-qizlarning eng katta muammolarini hal etgani haqida



*Bugungi navqiron avlod mamlakatimizning baxtiyor yoshlaridir. Buni mustaqillik yillari, xususan, so‘nggi sakkiz yilda barcha soha singari oliy ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlarda yigit-qizlarimizning orzu-umidlari, maqsadlari o‘z ifodasini topayotganida ko‘rishimiz mumkin.*

*Biz, odatda, erishilgan ko‘pgina yutuqlarga tezda moslashamiz va kechagi kunni unutamiz. Aslida har bir ulkan yutuq, islohot tagida kuchli iroda, uzoqni o‘ylab qilingan rejalar, mashaqqatli yo‘l bor. Jumladan, bugun oliy ta’lim tizimida qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar zamirida ham.*

### Mushohada

Yaqinda yurtimizning barcha hududida abituriyentlar oliy ta’limga kirish uchun bilimlarini baholovchi test sinovlaridan o‘tdi. Bu jarayonlar juda qulay sharoitlarda, emin-erkin, ortiqcha g‘ala-g‘ovurlarsiz, asabbuzarliklarsiz kechdi.

Unutganimiz yo‘q: sakkiz yil ilgari vaziyat mutlaqo boshqacha edi. Imtihonlar bo‘lib o‘tadigan kun – 1-avgust yaqinlashaversa, uning g‘alvalaridan yurak orqaga tortardi. Yillab imtihonga tayyorlangan abituriyentlarning tanlash va o‘qishga kirish imkoniyatlari ham nihoyatda cheklangan edi. Ya’ni test sinovlari bir kunda o‘tadi va faqat bitta ta’lim yo‘nalishini tanlaysiz, xolos!

Oliy ta’lim va talabalarni saralab olish tizimidagi kamchiliklarning jamiyatdagi salbiy asoratlarini hammamiz ko‘rib turardik. Birinchidan, oliy ta’lim muassasalari sanoqli, kvota o‘rinlari yetarsiz edi. Har bir abituriyent topshirgan ta’lim yo‘nalishiga – bir o‘ringa 15 nafardan 25 nafargacha, hatto undan ham ko‘p nomzod da’vogar bo‘lardi. Test sinovlarini o‘tkazish uchun ham sharoitlar qoniqarli emasdi. Bunday holatlar, o‘z navbatida, inson aqli va imkoniyatlarini haddan tashqari cheklar, asablarni taranglashtirar edi. O‘z-o‘zidan jarayonlar oliy ta’limda korrupsiyaning keng tarqalishiga imkoniyatlar eshigini ochgandi. Ayrim “tanka”lar, “uchar parovozlar”, “ishbilarmonlar” o‘qishga kiritishning ming turli nayranglarini, aylanma yo‘llarini o‘ylab topishdi. Buning oqibatida bora-bora aholi o‘rtasida “Puling yoki orqangda kimingdir bo‘lmasa, o‘qishga kira olmaysan”, degan xulosa paydo bo‘ldi. Ota-onalar “Farzandimni o‘qishga kiritaman”, deb chet ellarda yillab sarson yurardi.

Ikkinchidan, bunday salbiy holatlar talaba bo‘la olmagan yoshlarda jamiyatdan norozilik kayfiyatini uyg‘otdi. Ular ongida “Adolat yo‘q!” degan fikrning shakllanishi, davlatga ishonchsizlik uyg‘onishiga sabab bo‘ldi.

O‘n yil ilgari yoshlardan “O‘qishga kira olmasang, nima qilasan?” deb so‘ralganda “Rossiya yoki biror davlatga ishga ketaman”, der edi. Aksariyat yigit-qizlar o‘qishga kira olmagani tufayli jamiyatda mavhum bir bo‘shliqda muallaq qoldilar. Kollej ularga yetarli darajada kasb o‘rgata olmagan, qo‘llarida biror kasbi yo‘q edi. O‘zini o‘nglab ketish uchun hozirgidek “yoshlar daftari” kabi yigit-qizlarni hayotga yo‘naltiradigan, davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlov tizimlari bo‘lmagan. Natijada uyushmagan, mustaqil fikriga ega bo‘lmagan yoshlar qatlami ortib boraverdi. Yashab turgan jamiyatidan hafsalasi pir bo‘lgan bu kabi yoshlarning har qanday zararli, vayronkor, yot g‘oyalarga arzimas sabablar bilan ergashib ketgan holatlari juda ko‘p bo‘ldi.

Uchinchidan, abituriyent ming azob va qiyinchiliklar bilan o‘qishga kirganidan so‘ng ham, uning navbatdagi mashaqqatli davri boshlanardi. Talabalik uchun to‘lov-shartnoma summasini 15-sentyabrgacha to‘lashi kerak edi. Bu ham yetmagandek, paxta terimiga chiqishi, yana boshqa majburiy mehnatlar – obodonlashtirish va ko‘cha-ko‘yda gul, ko‘chat ekish kabi bir qancha tashvish kutardi uni. Bularning barchasi talabani o‘qishdan chalg‘ituvchi, qiziqish va umidlarini so‘ndiruvchi muammolar manbai edi.

Davlatimiz rahbari so‘nggi sakkiz yilda yurtimizda oliy ta’limni isloh qilish jarayonida yuzlab yangi amaliy islohotlarga qo‘l urdi. Shulardan biri – abituriyentlarni talabalikka qabul qilishdagi islohotlar. Qachonlardir kimdir aytsa, tushdek tuyulgan jarayonlar bugungi real hayot tarziga aylandi.

Bugungi abituriyentlar uydan turib, onlayn tarzda o‘zi istagan 5 ta ta’lim muassasasiga mos ta’lim yo‘nalishlari bo‘yicha hujjat topshirish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Test natijasiga ko‘ra ana shu oliy ta’lim muassasalaridan birini tanlash imkoniyati tug‘ildi. Ilgari yoshlar birgina hujjat topshirish uchun Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Xorazm, Surxondaryo, Andijon va boshqa viloyatlardan Toshkentga uzoq yo‘l yurib kelishgan bo‘lsa, endilikda vaqt, mablag‘ sarf qilmasdan uydan turib hujjat topshirmoqda. Hatto poytaxtdagi oliygohlarning uzoq hududlarda filiallari ochildi. Test sinovlari esa shaffoflikni ta’minlash uchun barcha qulaylik ta’minlangan holda katta sport maydonlari, yirik pavilyon va inshootlarda o‘tkazilmoqda. Bunda telefon orqali yordam so‘rash ham, boshqa “yordamchi kuch”larni jalb qilish ham imkonsiz. Ota-onalar esa kutish joylarida onlayn tarzda o‘z farzandlarining imtihon topshirish jarayonlarini kuzatish imkoniga ega. Bugun hech kim test sinovi imtihonlariga kelib, “Adolatsizlik bo‘ldi”, “Shaffoflik bo‘lmadi” kabi salbiy fikrlarni ayta olmaydi.

Prezidentimiz tashabbusi bilan har bir yoshning oliy ma’lumotli bo‘lishi uchun qabul parametrlari soni bir necha karra oshirildi. Nomdor stipendiya, davlat mukofoti sovrindorlari, nogironligi bo‘lgan shaxslar, xotin-qizlar, harbiy xizmatchilarning farzandlari uchun va boshqa bir qancha maxsus kvota o‘rinlari ajratildi. Ko‘plab xususiy, xalqaro va qo‘shma ta’lim dasturlari doirasida oliygohlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 2017-yilda oliy ta’lim muassasalari soni 70 ta bo‘lgan bo‘lsa, bugungi kunda salkam uch marta ko‘payib, 210 tadan oshdi. Oliy ta’limga qamrov darajasi esa 9 foizdan 43 foizga yetgani zamonaviy ilm va kasb sohalarini egallashda o‘g‘il-qizlarimiz uchun yangi imkoniyatlar ochmoqda. Abituriyentga o‘zi tanlagan davlat oliygohiga o‘qishga kira olmagan taqdirda ham xususiy yoki xalqaro oliygohlarda o‘qishini davom ettirish imkoniyati bor.

Shuningdek, talaba bo‘lishning katta tashvishlaridan keyingi to‘lov-shartnomani to‘lashdagi muammolari ham davlat qo‘llab-quvvatloviga o‘tdi. Banklar tomonidan imtiyozli ta’lim kreditlari ajratilmoqda. Oilada ikki va undan ortiq farzandi o‘qiydiganlarning shartnoma to‘lovida yengilliklar yaratilmoqda. Talabalarning ijarada yashash to‘lovlarining ma’lum qismi ham davlat tomonidan qoplab berilmoqda.

Yoshlarning sifatli ta’lim olishi uchun barcha qulaylikka ega zamonaviy binolar, o‘quv xonalari, yashash uchun turarjoylar mavjud. Bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazishi, iqtidor va qiziqishlarini yuzaga chiqarishi uchun turli yo‘nalishlarda klub va to‘garaklar, sport majmualari tashkil qilingan. Hatto yoshlarimiz chet eldagi oliygohlarga uydan turib onlayn imtihon topshirmoqda. Imtihon natijalariga ko‘ra, ularga “Bizning oliy ta’limda o‘qishni boshlashingiz mumkin”, degan taklifnomalar kelyapti.

Ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlardan mamlakatimizdagi oliy ta’lim muassasalari talabalarining dunyoning turli mintaqasidagi yirik tanlovlar yoki reytinglarda yuqori o‘rinlarni egallagani haqida eshitaverib, o‘rganib ham qoldik.

Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Yangi O‘zbekiston bunyodkori bo‘laman!”, “Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga munosib hissa qo‘shaman!” degan yuksak maqsadlar farzandlarimiz qalbidan chuqur joy olib, ularning hayoti va faoliyati mazmuniga aylanib borayotgani bilan har qancha faxrlansak, arziydi.

Bugun yurtimizdagi har bir yosh jonajon Vatanimizda amalga oshirilayotgan islohotlardan mamnun, u o‘ziga, kelajagiga ishonadi. Maqsadi oliy – kelajagi porloq yangi O‘zbekistonni barpo etish uchun bor kuch-g‘ayrati, shijoatini safarbar qilishga tayyor.

Demak, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning eng cho‘qqisida doim yoshlar masalasi birinchi darajali vazifa qilib qo‘yilgan. Buning isbotini yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 79-moddasida “Davlat yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishi hamda rivojlanishi uchun, ularning ta’lim olishga, sog‘lig‘ini saqlashga, uy-joyga, ishga joylashishga, bandlik va dam olishga bo‘lgan huquqlarini amalga oshirish uchun shart-sharoitlar yaratadi”, deb belgilab qo‘yilganida ham ko‘rish mumkin. Bu esa davlatning yoshlar oldidagi mas’uliyatini yanada kuchaytiradi, yangi loyihalar, yangi vazifalarni hayotga tatbiq etish uchun asos va turtki bo‘ladi.

**Azizbek AMONOV,**
**Buxoro davlat universiteti departament boshlig‘i, dotsent.**

## FUTBOL xabarlari

### O‘smirlarimiz xalqaro musobaqada qatnashadi

*FIFAning 17 yoshlilar o‘rtasidagi jahon chempionatiga tayyorgarlikni davom ettirayotgan O‘zbekiston o‘smirlar terma jamoasi sentyabr oyida Ispaniyada o‘quv-mashg‘ulot yig‘inini o‘tkazadi.*



Islom Ismoilov shogirdlari yig‘in doirasida xalqaro musobaqada qatnashadi va joriy yilgi “U-17” ishtirokchilari – Angliya, Kanada hamda Marokash o‘smirlar terma jamoalariga qarshi maydonga tushadi. Taqvimga ko‘ra, 3-sentyabrda UYEFA a’zosi Angliya, 6-sentyabrda Kanada va 9-sentyabr kuni Afrika qit’asi vakili Marokash futbolchilari bilan kuch sinashadi.

### Abbosbek – “Istanbul Bashakshehir” futbolchisi



*O‘zbek futbol muxlislari kutgan yangilik rasman tasdiqlandi. O‘zbekiston milliy terma jamoasi yarimhimoyachisi Abbosbek Fayzullayev – “Istanbul Bashakshehir”ga o‘tdi.*

Bu haqda turk klubi o‘zining ijtimoiy tarmoqlarida e’lon qildi.

Hamyurtimiz yangi jamoada 11-raqam ostida to‘p tepadi. U sobiq jamoasi SSKAda o‘tkazgan ikki mavsum davomida 72 ta bahsda maydonga tushib, 8 ta gol urdi va 22 ta golga hammualliflik qildi.

Eslatib o‘tamiz, yangi mavsum oldidan milliy terma jamoamizning yana bir a’zosi, hujumchi Eldor Shomurodov “Istanbul Bashakshehir”ga ijara asosida o‘tgan edi.

### Qur’a tashlash sanasi ma’lum bo‘ldi



*Kelgusi yilning 11-iyun – 19-iyul kunlari AQSH, Kanada va Meksika yashil maydonlarida o‘tkaziladigan jahon chempionatida qatnashuvchi davlatlarning 13 tasi ma’lum bo‘lsa, qolgan 35 ta yo‘llanma uchun saralash o‘yinlari belgilangan tartibda davom etmoqda.*

Kuni kecha jahon chempionatiga qur’a tashlash sanasi va manzili to‘g‘risida xabar berildi. Unga binoan, yirik musobaqaning guruh bosqichi uchun qur’a marosimi joriy yilning 5-dekabrida Las-Vegas (AQSH) shahrida tashkil qilinadi. Tadbir “Sphere Hall” majmuasida o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Dunyodagi eng katta sharsimon inshoot sifatida e’tirof etiladigan majmua 17,5 ming nafar tomoshabinni o‘z bag‘riga sig‘dira oladi.

### “Nasaf” tarkibini kuchaytirmoqda

*“Nasaf” (Qarshi) jamoasi O‘zbekiston superligasining yozgi tanaffus oralig‘ida o‘z tarkibiga yangi legionerlarni jalb etdi. Klub biryo‘la 3 nafar mohir futbolchi bilan shartnoma imzoladi.*

Nigeriyalik Sokari Kingsli va Yusuf Otubanjo, Albaniya vakili Adenis Shala bundan buyon “Nasaf” libosida o‘ynaydi. 30 yoshli yarimhimoyachi S. Kingsli o‘z paytida Nigeriyaning turli yosh toifalarida mamlakat sharafini himoya qilgan. Hujumchi Yu. Otubanjo esa 32 yoshda bo‘lib, Yevropa chempionatlari – Avstriya, Slovakiya va Armaniston birinchiliklarida to‘p surib, qator yutuqlarni qo‘lga kiritgan.

26 yoshli chap qanot hujumchisi A. Shala, asosan, Bolqon yarimoroli mamlakatlari jamoalari safida harakat qilgan.

**Sunnatilla ISLOMOV (“Xalq so‘zi”) tayyorladi.**

**Qozog‘istonda bo‘lib o‘tgan III xalqaro “Almaty Circus” festivalida o‘zbekistonlik sirk artistlari ham qatnashdi.**

**Sizlar – Yangi O'zbekiston bunyodkorlari sifatida yangi tarix yaratadigan oltin avlodsiz!**

**Shavkat MIRZIYOYEV,**
**O'zbekiston Respublikasi Prezidenti**



# ENG GULLAGAN Yoshlik CHOG'IMDA





## Hikmatlar

*Yigitlikda yig'*
*ilmning mahzani,*
*Qarilik chog'i*
*sarf qilg'il ani.*
*Alisher Navoiy*

*Yoshmisan,*
*keksani sen*
*hurmat ayla,*
*O'zing ham*
*qariysan, hozirdan*
*o'yla.*
*Fariduddin Attor*

*Yoshlik go'zallikni*
*ko'ra olgani uchun*
*ham baxtiyordir.*
*Go'zallikni*
*ko'ra olish*
*qobiliyatini*
*yo'qotmagan kishi*
*esa hech qachon*
*keksaymaydi.*
*Frans Kafka*

## Barhayot satrlar

**Erkin VOHIDOV,**
**O'zbekiston Qahramoni, xalq shoiri**

## YoSHLIK

*Yoshlik! Seni kuylamagan kim,*
*Ertaklaring so'ylamagan kim,*
*Qariganda o'ylamagan kim,*
*O'ylab yana kuylamagan kim?*
*Bitmoq bo'ldim men ham senga bayt,*
*Yosh yurakning haqqi bormi, ayt?*

*Yoshlik, asli mening o'zimsan,*
*Keng olamga boqqan ko'zimsan,*
*Yozgan she'rim, aytgan so'zimsan,*
*Kecham, ertam, ushbu ro'zimsan.*
*Bitmoq bo'ldim sen uchun ash'or,*
*Ammo o'zni kuylamoq dushvor.*

*Yoshlik – gulu gulg'uncha ekan,*
*Bu gul olam turguncha ekan,*
*Yoshlik – behad tushuncha ekan,*
*Poyoni yo'q garduncha ekan.*
*Bitmoq bo'ldim men unga doston,*
*O'ylarimga topmadim poyon.*

*Yoshlik, dildan shavq ketgani yo'q,*
*Yurak seni tark etgani yo'q,*
*Yurak seni tark etgani yo'q,*
*Demak, qadringga yetgani yo'q.*
*Yoshlik, seni kuylab bilurman,*
*Ammo bugun yoshlik qilurman.*

*Yoshlik – ishqu oshiqlik mayli,*
*O'zi Majnun, ham o'zi Layli,*
*Subhi olam uning tufayli.*
*Mayli, unga bitmasam, mayli,*
*Na bir g'azal, na bir musaddas,*
*Uning o'zi she'rdan muqaddas.*

## Matonat

## ONAMNING SABOTI – ZAFARLARIM SABABCHISI

*Odamning hayotida sinov va quvonch bir paytda keladigan hayajonli damlar kamdan-kam bo'ladi. Hayotimdagi shunday voqea bir necha oylar avval "Yosh kitobxon" tanlovida ro'y berdi.*



O'shanda men hali nimalar bo'layotganini to'la anglamay, g'oliblikdan masrur, tez orada sovg'a qilinishi kerak bo'lgan avtomobil oldida intervyu berayotgandim. Birdan shunday quvonchli kunda yonimda birorta yaqinim yo'qligi xayolimdan yarq etib o'tdi. Yuragimda og'riq paydo bo'ldi. O'shanda bitta emas, uch farzandini otasiz oq yuvib-oq taragan, o'qitgan, umuman olganda, yaxshi hayot kechirishi uchun jonini ham ayamagan onam viloyatda, oyog'i singani uchun kelolmagandi. G'oliblik nashidasi bir chetda qolib, ko'nglimni battar zulmat chulg'adi. Onam bilan telefon orqali gaplashar ekanman, ko'zimdagi yosh to'xtamas, battar ichikardim, kamiga tilim ham aylanmasdi.

Tasavvur qilishning o'zi og'ir... Onam bizni yolg'iz o'zi tarbiyaladi, boshqalardan kam bo'lmay yashashimiz uchun tirishdi, tinmadi. Men esa hamisha onamga bu yaxshiliklari uchun qanday javob qaytarish, uni qanday xursand qilish haqida o'ylardim.

Maktabda o'qib yurgan kezlarim televizor orqali "Yosh kitobxon" tanlovini ko'rdim, shunda qalbimda kun kelib, albatta, shu tanlovda qatnashaman, mashina yutib, onamga tuhfa etaman degan istak paydo bo'ldi. Bedor o'tgan kechalar, tinimsiz harakat va o'qish meni zafar cho'qqisiga olib chiqdi. Bunda esa onamning matonati va tarbiyasining alohida qadri bor.

Bugun yurtimizning kitobxon, iste'dodli, ishonchli yoshlari safidaman va albatta, qatordan ortda qolmaslik uchun bor kuchim, ishtiyoq hamda mehnatim bilan harakat qilaman.

**Maftuna OCHILOVA,**
**Urganch shahridagi "Nurli hayot" MFY yoshlar yetakchisi, "Kelajak bunyodkori" medali sohibi.**

## YUKSAK ISHONCHGA MUNOSIBLIK HISSI

*Kechagina talabalik ostonasidan katta hayotga qadam qo'ygan, ta'bir joiz bo'lsa, ijodu ishtiyoq osmonida parvoz etishga shaylangan qush singari edim. Bugun esa qanotlarim samo uzra keng yoyilgan, yuragimda orzular yanada jo'sh urmoqda, manzilim esa – nurafshon istiqbol!*

### Ishtiyoq

Astoydil qilingan mehnatlar, chekilgan zahmatlar kun kelib samara beradi, albatta. Men o'tgan yili O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filialida dramaturgiya yo'nalishini tamomladim. Talabalik chog'i qalbimda nish otgan niyat va maqsadlar meni Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri sari yetakladi. Hozirgacha bu maskanda ishlash barobarida badiiy ijod bilan shug'ullanib, ustoz va tengdoshlarimdan saboqlar olib, faoliyat ko'rsatib kelmoqdaman.

Mehnatlarim zoye ketmadi. Bundan ikki yil burun Moskvada o'tkazilgan xalqaro ijodkorlar tanlovida qatnashib 1-o'rinni egalladim.



Tanlovga taqdim qilgan "Bir xumcha oltin" nomli asarim hakamlar va ko'plab ustozlar tomonidan e'tirof etildi, bu esa menga yanada g'ayrat bag'ishladi.

Yoshlikning ajoyib damlari bir-biridan go'zal xotiralar, muvaffaqiyatlar, omadli lahzalar bilan boyib borayotganini o'ylasam, yuragim orziqib ketadi. Boisi yoshligi besamar o'tmagan kishi kelajakda ulkan yutuqlarga erishishi haqida juda ko'p eshitganman.

Yaqindagina ko'ksimga taqilgan yuksak mukofot ham shu yurt, shu elning umidi ekanimga ishonchnoma deb bilaman. Ushbu rag'bat va u bergan mas'uliyat, davlatimiz rahbari qo'lidan mukofot olishim yuksak marralarni zabt etishga da'vat qiladi. Bugun yuragimda o'zgacha tuyg'ular, orzular sururi yashamoqda, chunki men betakror yurtimning baxtiyor yoshlaridanman.

**Islam ESHNIYAZOV,**
**Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat akademik musiqali teatri sahna ustasi, "Mard o'g'lon" davlat mukofoti sohibi.**

## TAQDIR ERKALATGAN NABIRALARIMDAN AYLANAY

*Bolaligim urush qiyinchiliklari, muhtojliklari davrida kechdi. Mening tengto'shlarim O'zbekistonning qaysi nuqtasida umrguzaronlik qilayotgan bo'lishidan qat'i nazar, so'zlarimni tasdiqlaydi. Chunki bizning taqdirimiz bir, kechmishimiz yagona.*

### Shukrona

Bizning bolaligimiz, o'quvchilik yillarimiz paxtazoru egatlarga sochilib ketgan. Sentyabr boshida odatdagidek yangi o'quv yili qo'ng'irog'i chalinar va dalaga otlanardik. O'quvchi qo'liga kitob-daftar emas, etak hamda qop tutqazilar, achinarlisi, bu odatiy holga aylangan, hech kim bunga e'tiroz bildirmasdi. Tong otishi va kun botishi tabiiy bo'lganidek hali suyagi qotmagan navqiron o'smirlarning ham paxta terishi odat tusiga kirgan edi. Biz shunga majbur edik, mas'ul edik, mahkum edik.

Ta'lim muassasalaridagi tadbirlarda, uch avlod uchrashuvlarida ishtirok etganimda, garchand og'ir va azobli bo'lmasin, bolaligimni, o'tgan kunlarni eslayman, nevaralarim, evaralarimga ham aytib berishga harakat qilaman. Taqdir erkalatgan bolalarimizning bugungi kunini ko'rib havas qilaman, istiqbolini o'ylab yana yashagim keladi. Axir bu kunlarning qadri, qiymati boshqacha.



Davralarda so'z ketsa, ko'pchilik bolalik yo yoshlik yillari to'g'risida "Eng gullagan yoshlik chog'imda..." deya gap boshlaydi. Bunday o'ylab qarasam, hayotimning eng gullagan chog'i biz kechirib turgan ayni kunlarga to'g'ri kelarkan. Niyatim – umrimizning ushbu eng farahbaxsh kunlari farzandlarimizning quvnoq kulgisi va to'kis baxtidan gullab-yashnayversin!

**Jo'ra AHMEDQULOV,**
**"Nuroniy" jamg'armasi Nurafshon shahar bo'linmasi rahbari, xalq deputatlari Nurafshon shahar Kengashi deputati.**

## MEHR-MUHABBAT HECH QACHON SO'NMAYDI

*Eng beg'ubor tabassum sohiblari kim, bilasizmi? Eng toza yurak egalari-chi? Bilmasangiz, demak, yashamay qo'yibsiz. Albatta, bular Yer yuzidagi barcha bolalar! Qalblarini butun vujudi ila pokiza tuyg'ular qamrab olgan bu mittigina shirintoylar kattalarga ham beg'uborlik ulashadi.*

### Tuyg'u



Bolalarning ko'zlariga boqsangiz, bu olamning jamiki ranglari mujassamligini ko'rasiz. Mehr va sehr qalqib turgan bu nigohlardan hayratda qolasan, kishi. Bu ko'zguda dildagi bor narsa aks etadi.

Biz ham bir vaqtlar mana shu beg'uborlikka oshno edik. Ulg'aygan sari orzular ham, maqsadlar ham kattalashdi. Men anglagan achchiq haqiqat shundaki, mana shu toza ko'zgu va soflikni hamma ham saqlab qololmas ekan. Hatto deyarli o'nta odamdan to'qqiztasi bolalikdan meros beg'uborligini pul, mansab, nafs yo'lidagi orzu-havaslarga osongina alishtirib yuborar ekan. Ayrim beshafqat, qalbsiz, johil odamlarga qarab turib, ular ham bir paytlar bola bo'lganiga ishonging kelmaydi. Axir bolalikning tabiat in'om etgan hech bo'lmasa, bittagina xislati saqlanib qolishi kerak emasmi?!

Bolalik hamisha men bilan, shu bois bolajonlarga mehrim baland. Jajji do'stlarimizni yoqtirmaydigan ayrim kimsalarni jinim suymaydi. Xuddi o'zlari bola bo'lmay, birdaniga katta bo'lib qolganday go'yo. Axir, bu murg'ak ko'ngillarni qanday sevmaslik mumkin?! Menga qolsa, bolalarning samimiy, ko'ngilga olam-olam zavq bag'ishlovchi, jamiki g'uborlarni aritib yuboruvchi kulgisiga hech nimani, hatto dunyoning bor boyligini alishtirmagan bo'lardim. Va istardimki, bolajon xalqimizning qalbidagi yosh avlodga bo'lgan mehru muhabbat hech qachon so'nmasin, aksincha, yanada alangalansin, yanada olovlansin.

**Sherzod XALIKOV,**
**Yashnobod tumanidagi 30-Mehribonlik uyi tarbiyachisi, "Kelajak bunyodkori" medali sohibi.**

## SHUKRONA AYTAMAN UYG'ONIB HAR TONG...

### Iftixor



*Ey, Vatan!*
*Shukrona aytaman uyg'onib har tong,*
*Kundan-kun gurkurab yashnaganingga.*
*Yetti iqlim uzra dovruq taratib,*
*Mag'rur-mag'rur qadam tashlaganingga.*

*Ey, Vatan!*
*Istiqlol baxsh etgan ne'matlaringni,*
*Qo'limda qalamim, kuylayman jo'shib.*
*Jahon ahli seni olqishlayotir,*
*Ildamlab borarsan dovonlar oshib.*

*Ey, Vatan!*
*Olam loldir bugun ko'rib qudrating,*
*Kelajaging shaksiz buyukdir, illo.*
*Zarra tuprog'ing ham tavof etaman,*
*Jannatmonand o'lkam, senga jon fido!*

**Sherbek ISLOMOV**
Urgut tumani

## ORZULARIM SARI DADIL ODIMLAYAPMAN

*Hayot-da, ayrim tengdoshlarim yangi rusumdagi qimmatbaho avtomobillarga orzumand. Mening niyatim esa ularnikidan tamomila farqlanadi – bolalikdan otam Olimjon Mirzayevga tegishli traktorni boshqarishni orzu qilardim. Asosiysi, otam ham menga "Qo'y, qizim, traktor haydash o'g'il bolalarning ishi, sen uyga borib, onangga qarash", demadi. Orzularim ushalishi uchun yonida yurib ish o'rganishimga ruxsat berdi.*

### Sadoqat



Men dehqon oilasida tug'ildim. Ko'plab do'stu tanishlarim qismat izlagancha qishloqning changu g'uboridan qochib, shaharga yo'l olishdi. Taqdir esa meni boshqa tomonga yetakladi va bundan sira afsuslanmayman.

Otamning umri qisqa ekan, yurak xurujidan vafot etganida yaqinlarimiz fermer xo'jaligini boshqarish oson emasligini aytib, uni topshirish kerak deya maslahat berishdi. Ammo onam otamning ishini davom ettirishga qaror qildi va fermerlikni o'z zimmasiga oldi. Mening chekimga esa o'zim hadisini olgan traktorni haydash va onamga dala ishlarida yordamchi bo'lish tushdi...

Fermer xo'jaligimizning jami 14 gektar yeri bor. Har yili g'alla va paxtadan mo'l hosil olib, belgilangan rejalarni ortig'i bilan bajarib kelyapmiz. Hozir ayni g'o'za parvarishi payti. Nasib etsa, bu yil ham hosil mo'l bo'ladi, deya umid qilyapmiz. Bugun nafaqat traktor, balki kombaynni ham boshqara olaman. O'tgan yil "Claas Dominator" g'alla o'rim kombayni bilan yetishtirilgan mo'l hosilni yig'ishtirib olishda faol qatnashdim.

"Intilganga tole yor" deyishganidek, bugun ko'zlagan orzularim sari dadil odimlayapman. Kelajakda oliygohda o'qishni davom ettirib, texnika sirlari, dehqonchilik ilmini mukammal o'rganishni maqsad qilganman.

**Ziyoda JO'RABOYEVA,**
**Guliston tumanidagi "Ozodbek tuhfasi" fermer xo'jaligi mexanizatori, "Kelajak bunyodkori" medali sohibi.**

**Sahifa materiallarini Rahmatjon BOBOJONOV va Otabek ISROILOV ("Xalq so'zi") uyushtirdi.**

**O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tomonidan 114 ta Qur'oni karim nusxasi asosida kitob-albom tayyorlanmoqda.**

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 642. 13 107 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'zA yakuni — 21.10 Topshirildi — 01.30 1 2 3 4 5 6